

Ma'naviy meros



MUQADDAS BURCH – YUKSAK SHARAF

Bugungi globalashuv sharoitida vujudga kelayotgan tahlikali vaziyat va keskin raqobat davrida, dunyoning ayrim mintaqalarida yuz berayotgan qurolli mojarolar, qarama-qarshiliklar tobora avj olayotgan yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaz dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Mana shunday sharoitda mamlakatimiz yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va osuda hayotni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bugungi zamon talabidan kelib chiqqan holda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

DUNYODA sodir bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar g'oyaviy-mafkuraviy bo'shliqqa nisbatan muntazam ogoh bo'lishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, global miqyosda turli tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi vaqtda yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usini shakllantirish hamda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni yanada rivojlantirish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Yosh avlodni yurtga sadoqat va Vatanga fidoyi etib tarbiyalashga mamlakatimizning asosiy strategik vazifasi sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda.

VATANPARVARLIK – insonning yuksak ma'naviy jasorati hisoblanib, u yuksak burch va oriyat timsoli. Shu bilan birga vatanparvarlik insonni milliy g'urur hamda ruhiy barkamollik sari yetaklab, milliy o'zlikni anglashga da'vat etadi. Zero o'z xalqiga sadoqat va fidoyilik, ona Vatanni himoya qilish, uni cheksiz sevish har qanday insonning haqiqiy vatanparvarlik fazilati hisoblanadi. Vatanparvarlik Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi ona Vatan mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek muqaddas va oliyjanob faoliyatni anglatadi. Shu ma'noda, vatanparvarlik yurt ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat, desak, ham to'g'ri bo'ladi.

“VATANPARVARLIK” so'zining kelib chiqishiga nazar tashlasak, bu so'z nemischa “patriot”, fransuz “patriote” so'zidan olingan bo'lib, “Vatan o'g'li” degan ma'noni bildiradi. “VATANPARVAR” so'zi lotincha “patriota” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, grekcha “patriotes” – “yurtdosh, vatandosh” degan ma'nolarni anglatadi.

Tarixdan ma'lumki, Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi buyuk allomalarimiz asarlarida ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh g'oyasi sifatida talqin etilgan. Zero Vatan tarixini bilgan, ulug' ajdodlar merosini chuqur o'rgangan har bir inson qalbida milliy g'urur-iftixor tuyg'ulari yanada jo'sh urib, el-yurtga, Vatanga sadoqati

ortib boraveradi. **Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy Vatanni sevish, ardoqlashni tabiat va jamiyatning muhim qonuniyati sifatida ta'riflaydi:** “Vatan. Har bir kishining tug'ilub o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining Vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sgan yerini jonidan ortiq suyar. Vatan histuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z Vataniidan – uyuridan ayirilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamas, maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go'shasida o'z Vatanning muhabbati turar”.

VATANPARVARLIK TUYG'USI insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam qalqon shakllanishiga xizmat qiladi. Shu o'rinda Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi uchun kurashda tashabbuskor bo'lish, tinchlikni ko'z qorachig'idek asrash, unga fidoyilik bilan xizmat qilishga undaydi. Inson qalbida millat, ajdodlar ruhi oldidagi burch qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniga ulug' maqsadlari sari da'vat etuvchi ezgu g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlarga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini anglash, millat, Vatan sha'ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi.

Bugungi tahlikali zamon shiddati inson uchun vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ma'naviyat naqadar najotkor kuch ekanini namoyon etmoqda. Zero axloqsizlik, odobsizlik, ma'naviy qashshoqlik insonni ma'naviy tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltirayotganini ko'rsatmoqda. Ma'naviyat insonning jamiyatda yashashi uchun zarur ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuch sifatida insonda go'zal odob-axloq fazilatlarini shakllantirish orqali uning jamiyatdagi mavqeyini belgilab beradi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, Vatan ishq jo'sh urgan, oriyatli, ma'naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Vatanparvarlik tuyg'usi insonni tug'ilub o'sgan zaminga bo'lgan muhabbati, ona Vatanga mehr va sadoqatida aks etib, millat, xalq, uning tarixi va buguni hamda kelajagi xususida

tafakkur qilishga da'vat etdi. Shu bilan birga, vatanparvarlik yosh avlodni tarbiyalashda va kelajakka bo'lgan ishonch tuyg'ularini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Azaldan yurtimizda vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar, donishmand va siyosatchilar tarbiya va axloq masalasiga yakdillik bilan jiddiy munosabatda bo'lishga da'vat etgan. Imom al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy, Xorazmiy, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarimizning ilmiy-ijodiy merosida Vatanni sevish, yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, uzoq safarlarga ketish oldidan yurtdoshlarimiz doimo Vatanni sevish va uni qo'rsash uchun o'zlari bilan birga Vatan tuprog'ini olib ketgan. Shu bir kaft tuproqda Vatan hidi, tafti, mehri mujassam bo'lgan. O'sha bir kaft tuproqni doimo qalbida muqaddas sanab, yurtining bir qismi sifatida e'zozlagan.


VATAN OZODLIGI VA OBODLIGI, sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyi bo'lish, xalqning or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasini baxshida etish muqaddas burch va sharaf hisoblanadi. Vatanparvarlik insonlar o'rtasida ma'naviyat, mehr-oqibat, insof, diyonat, adolat tuyg'ularini shakllantirishga zamin yaratadi. Vatan sha'ni, millat or-nomusi uchun jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash orqali Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni tobora quvontirib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun Yangi O'zbekistonni barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mansur MUSAYEV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti bo'lim boshlig'i, siyosiy fanlar doktori

Qaror va ijro

MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISH TAKOMILLASHIMOQDA

Biz oldimizga inson huquq va erkinliklari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustun bo'lgan, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlat, ochiq va adolatli jamiyat barpo etishni maqsad qilganmiz. Albatta, ushbu oliy maqsadlarga erishish o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Bunda "kuch-birlikda" deganlaridek, shaxs, jamiyat va davlatning birlashuvi, mushtarakligi talab etiladi.



Ma'lumki, sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar jamiyatning eng nozik va shu bilan birga shaxs hayotiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi masalalaridan biri hisoblanib, undagi ba'zi birlarini payqamaslik belgilangan reja-tadbirlarimizning qaysidir bo'g'inida uzilishlar ro'y berishiga olib kelishi mumkin.

Shu ma'noda, agar siz o'zingizni jamiyatning ijtimoiy-huquqiy hayotidagi o'zgarishlarga e'tiborsiz bo'lmagan fuqaro deb hisoblasangiz, e'lon qilinayotgan yangi qonun hujjatlarini imkoniyat doirasida kuzatib borasiz. Bu sizga ro'y berayotgan islohotlarning mazmunini to'g'ri anglash, oqibatlariga "tayyor turish" va zarur bo'lsa, boshqalarga ham uning mohiyatini tushuntirib berish imkonini beradi.

Albatta, islohotlar bo'yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlarimizning aksariyat qismi bo'yicha asosiy yuk va nazorat mansabdor shaxslarning zimmasiga yuklatilgani, ularning islohotlar samarasi bo'yicha mas'uliyatini yana bir karra oshirishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi "Fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini sud orqali himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi va "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi" tasdiqlandi.

Keling, hujjat bilan yaqindan tanishish va uni tushunish uchun Prezident qarorining ayrim jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Qarorning asosiy mazmuni unda ochiq ifodalangan. Jumladan, ma'muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo'llash sohasini kengaytirish hamda davlat organi hujjatiga ishonib faoliyat yuritgan fuqaro va tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarining himoyasini qo'shimcha ravishda kuchaytirish hisoblanadi.

2017-yilda mamlakatimiz tarixida ilk marotaba ma'muriy sudlar tashkil qilingan bo'lsa, o'tgan davrda ular tomonidan ko'rib chiqilgan 120 mingga yaqin ariza va shikoyatning 57 foizi qanoatlantirilib, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlari tiklandi. Bu borada ma'muriy sudlar zimmasiga shikoyatlarni ko'rib

chiqishda "faol ishtirok etish" tamoyili asosida nizoni to'g'ri hal qilish uchun dalillarni mustaqil yig'ish majburiyati yuklangani, sud qarori ijrosini ta'minlamagan mansabdor shaxslarga jarima qo'llash vakolati berilgani ham ushbu institut takomillashtirish borayotganidan dalolat beradi.

Hujjatga ko'ra, qarori, harakati (*harakatsizlik*) ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organi mansabdor shaxs yoki uning vakili sud majlisida majburiy ishtirok etishini ta'minlash, ma'muriy sud ish yurituvda ishlarning tezkor va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlashga hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga o'z huquqlarini himoya qilish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga qaratilgan dastlabki eshituv institutini joriy etish tartiblarini ma'muriy sudlar faoliyatiga joriy etish haqidagi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Adliya vazirligining takliflariga rozilik berildi.

Kelgusida davlat organi mansabdor shaxs yoki uning vakili ma'muriy sudning majlisida majburiy ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha: davlat organi qarori yoki uning mansabdor shaxsi harakati (*harakatsizlik*) ustidan berilgan arizani ma'muriy sudlarda ko'rishda mansabdor shaxs yoki uning vakili zarur tushuntirishlar berish uchun sud muhokamasida ishtirok etishi shart hisoblanishi, davlat organi mansabdor shaxs yoki uning vakili ishtirok etishi zarur deb topilgan hollarda ma'muriy ishni ko'rib chiqish keyinga qoldirilishi, uning ishtiroki ishning har tomonlama, to'liq va to'g'ri hal qilinishiga to'sqinlik qilmagan taqdirda, ish davlat organi mansabdor shaxs yoki uning vakili ishtirokisiz ko'rib chiqilishi, davlat organi mansabdor shaxs yoki uning vakili sud muhokamasiga kelmagan va uning kelmagan sud tomonidan uzrli deb topilmagan taqdirda, mansabdor shaxsga nisbatan sud jarimasi qo'llanilishi, ma'muriy sud ish yurituvda dastlabki eshituv institutini joriy etish bo'yicha: ma'muriy sud ish yurituvda dastlabki eshituv qonunda nazarda tutilgan hollarda o'tkazilishi, dastlabki eshituvda arizachining talablari va javobgarning e'tirozlari aniqlashtirilishi, arizadagi kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rilishi, talablarni isbotlash uchun arizachiga zarur dalillarni hamda javobgarga fikrni yozma ravishda taqdim etish bo'yicha tushuntirishlar berilishi, arizadagi talablar va ishdagi dalillarga sudya tomonidan dastlabki huquqiy baho (*talablarni aniqlashtirish, ishga daxldor bo'lmagan taraflarni almashtirish, qo'shimcha javobgarni jalb*

qilish va boshqalar) berilishi, bunda ko'rilayotgan ishning mazmunan hal etilishi bo'yicha yakuniy fikr bildirishga yo'l qo'yilmasligi, dastlabki eshituv ariza sudga kelib tushgan kundan e'tiboran yigirma kundan kechiktirmay o'tkazilishi, ushbu muddat sud muhokamasi uchun belgilangan muddatga kiritilmasligi, dastlabki eshituv natijasiga ko'ra arizani qaytarish yoki ish bo'yicha sud muhokamasini tayinlash to'g'risida ajrim chiqarilishi, ma'muriy sudga nizolarni hal etish jarayonida sudga hurmatsizlik qilinishi va sudning xususiy ajrimi bo'yicha choralar ko'rmaslikka oid huquqbuzarliklar aniqlanganda, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rish vakolati berilishini nazarda tutuvchi qonun loyihalari ishlab chiqiladi.

Mazkur qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda Savdo-sanoat palatasining ishonchning himoya qilinishi prinsipi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksda alohida belgilash haqidagi taklifi ma'qullandi.

E'tibor bering, Prezidentimizning ushbu qaroriga asosan, Oliy sud manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda davlat organi hujjatining qonuniy kuchiga ishonib faoliyat yuritgan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining ishonchini himoya qilish uchun mazkur hujjatning keyinchalik bekor qilinishi ushbu shaxsning o'z mulkidan mahrum bo'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlar olib kelmasligiga oid qoidalarini (*bundan qonunda belgilangan hollar mustasno*) nazarda tutuvchi qonun loyihalari ishlab chiqilishi va belgilangan tartibda kiritilishi ko'rsatilgan.

Bu islohotlar jarayonida har doim shaxs va jamiyat manfaatlari, xususiy mulkning ishonchli himoyasi dastlabki o'rinlarga qo'yilayotganidan dalolat beradi.

Endi "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish konsepsiyasi" haqida bir og'iz so'z.

O'tgan davrda qabul qilingan "O'zbekiston - 2030" strategiyasida ham davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish hamda ma'muriy adliya tizimini yanada rivojlantirishga oid vazifalar belgilangan edi. Yuqoridagi Konsepsiya ushbu strategik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Konsepsiyada ma'muriy

sud ishlarini yuritishda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklashda sudning faol ishtiroki prinsiplarini qo'llash mexanizmlarini kengaytirish, ma'muriy sud ishlarini yuritishga xalqaro standartlarga va ilg'or xorijiy tajribaga muvofiq yangi institut va tartiblarni joriy etish kabi bir qator asosiy yo'nalishlarni belgilab bergan.

Agar biz jamiyat, shaxs va davlatning mushtarakligi asosida ushbu Konsepsiyada belgilangan vazifalarning ijrosini amalda ta'minlasak, kelgusida davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarining samarali himoya etilishini ta'minlash, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish, "O'zbekiston -2030" strategiyasida belgilangan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlariga erishish, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining buzilgan huquqlarini himoya qilishda ma'muriy sudlarning rolini kuchaytirish orqali aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish, ommaviy-huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga to'sqinlik qiluvchi qonunchilikdagi huquqiy bo'shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etish, ma'muriy sud ishlarini yuritishni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish, odil sudlovga oid xalqaro reyting va indekslarda mamlakatimiz o'rmini yaxshilash kabi ijobiy natijalarga erishamiz.

Xulosa o'rinda, barchangizni Prezidentimizning ushbu qarori bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etishga, ushbu qaror ijrosi bo'yicha kelgusida qabul qilinishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlarini loyihalari muhokamalarida o'z fuqarolik pozitsiyangizni to'laqonli namoyish etib, jamiyatda qonuniylik va adolat tarozisi kuchayishiga hissa qo'shishga chaqiramiz.

U. SHOKIROV,
Qarshi harbiy sudi raisi.
D. TURABEKOV,
Respublika Harbiy sudi
sudya katta yordamchisi

Bugunimiz qahramonlari

“HECH QANDAY “TREVOGA” MUVOZANATIMNI BUZA OLMAGAN”

Keksalar duosiga hech e'tibor berganmisiz? Avvalo, yurtga tinchlik, insonlar orasiga mehr-oqibat, farzandlar kelajagiga komillik tilashadi. Asrlar osha og'izdan og'izga o'tib kelayotgan bunday hikmatli duolar zamirida urush va ocharchilik ko'rgan bobo-yu buvilarimiz nidosi mujassamdek. Shukrki, tinch zamonda yashayapmiz. Uning ortida qanchadan qancha insonlarning sa'y-harakatlari, harbiy xizmatchilarning bedor tunlari, keksalarimiz duolari yotibdi.



Podpolkovnik Farhod Egamyorov ham yurt posboni bo'lishdek sharaflilik kasbga ota-onasining qiziqishi va duolari sabab kirib kelgan. Mana, salkam 20 yillik faoliyati mobaynida bir qancha xalqaro natijalarni zabt etgan Farhodjon bugungi kunda davlatimizning nufuzli unvonlaridan biri – “**Mardlik**” ordeniga loyiq ko'rildi. Andijon viloyatining Marhamat tumanida tug'ilib voyaga yetgan qahramonimizning hayoti va faoliyatiga to'xtalmoqni joiz bildik.

SHARAFLI KASBGA ILK QADAM

– Maktabda o'qib yurgan kezarim harbiy libosda yurgan akalarimizga havas qilganman. O'shanda men ham xuddi ulardek bo'lishni tasavvur qila olmasdim. Chunki hamma ham bunday sharaflilik emasdek tuyulaverardi. Vaqt o'tib, mendagi ikkilanishlar otamning qat'iyati sabab yo'qqa chiqdi. O'zimga bo'lgan ishonch ortgandi. O'z oldimga “Men, albatta harbiy bo'laman!” degan maqsadni qo'ydim. 2006-yili Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti kursantiga aylanganimda mendan ko'ra ko'proq ota-onam xursand bo'lgan edi. 2010-yili bilim yurtining havo-desant qo'shinlarining taktik qo'mondonligi fakultetini a'lo baholarga tugatib, Jizzax viloyatidagi harbiy qismlardan biriga guruh komandiri o'rinbosari vazifasida xizmatni boshladim.

ARMIYA – BIR JAMOA

– Kichik ofitserlik davrimda O'zbekiston Respublikasi Qurolli

Kuchlari hamda Mudofaa vazirligi miqyosida bo'lib o'tgan musobaqalarda qatnashdim. Bu ishtiroklar faoliyatim davomida katta tajriba to'plashimga asos bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, jamoaviy musobaqalar bizni birdamlikda harakat qilishimiz uchun katta turtki bo'ldi. Erishilgan yutuqlar ham, yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham jamoaniki.

XALQARO MUSOBAQADAGI SHIJOAT

– Yurtimiz harbiylari 2019-yildan buyon Xalqaro armiya o'yinlarida ishtirok etib kelmoqda. Muvaffaqiyatlarimiz ulkan. Men erishilgan natijalardan ko'ra, boshqa davlatlarning bizga nisbatan munosabati o'zgarganiga urg'u bermoqchiman. 2019-yili Xalqaro armiya o'yinlari doirasida Rossiya Federatsiyasida bo'lgan nufuzli musobaqada “Taktik o'qchi” yo'nalishida bronza medalni qo'lga kiritdik. O'shanda Rossiyaning “Zvezda” telekanali muxbirlari musobaqa ishtirokchilaridan intervyu olar ekan, bizga kelganda, “Sizlarning harbiy kiyim rusumlaringiz xalqaro maydondagi musobaqalar talabiga mos emas, uzr”, deyishgandi. Bu holat jamoamizning ruhiyatiga salbiy ta'sir etgan.

Shundan so'ng 2020-yili Qozog'iston Respublikasida bo'lib o'tgan Xalqaro armiya o'yinlarida boshqacha fondagi kiyimda qatnashdik. Unda ham “taktik o'qchi” yo'nalishida ishtirok etib, kumush medalni qo'lga kiritdik. Shunda hatto raqib jamoalar ham bir yil ichida yurtimiz armiyasida shuncha o'zgarishlar bo'lganidan hayratda

ekanini yashirmagan. “Zvezda” telekanali muxbirlari birinchilardan bo'lib bizning jamoamiz vakillaridan intervyu olgan edi...

JANUBIY KOREYADAGI E'TIROF

– Koreya Respublikasining Kongvando provinsiyasi Inje shahrida Xalqaro ilmiy-jangovar tayyorgarlik musobaqasi tashkil qilindi. Unda jami 13 ta jamoa, jumladan AQSh, Avstraliya, O'zbekiston va Kambodja davlatlaridan 500 dan ortiq harbiy xizmatchi ishtirok etdi. Musobaqa shartlari juda murakkab bo'lib, biz uchun joy ham, shartlar ham begona edi. Musobaqada har bir jamoa tasodifiy qur'a tashlash orqali bellashuvga kirishardi. Baholash jarayoni ishtirokchi guruhlar shartlarni to'liq bajargani, “omon qolish” darajasi, jangovar harakatlarning qoidalariga rioya qilingani, jangovar harakatlar taktik vaziyatga mos kelishi, har tomonlama tahlil natijalarini xabardor qilish orqali o'tkazildi.

Murakkab va mashaqqatli musobaqadagi ishtirokimiz a'lo darajada yakunlandi. Ketma-ket ikki (2023–2024) yil mobaynida peshqadamlikni qo'ldan bermadik. Bir jamoa bo'lib harakatlanganimiz, munosib raqiblarni ortda qoldirishimiz uchun muhim omil bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, yakka tartibida bo'lib o'tgan eng ilg'or vzvod komandiri nominatsiyasida ham faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdim. **Taqdirlash marosimida so'zga chiqqan Koreya Respublikasi mudofaa vaziri “O'zbek askarlari**

O'zbekiston Prezidenti kabi shijoatli, jasur va energiyaga boy ekan”, deb ta'kidlagan edi. Shunda o'zimizga bo'lgan ishonchimiz yanada ortdi. O'zbekiston harbiy xizmatchisi ekanimizdan g'ururlandik. Biz orqali Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondonining nomi tilga olinganida ota-onasiga rahmat olib kelgan farzanddek xursand bo'ldik.

ONAMNI YIG'LATGAN XUSHXABAR

– Bir tadbirdan qaytayotganimizda telefonim jiringladi. Qarasam, birga o'qigan kursdoshim. Yashil tugmani bosdim va qulog'imga tutdim. Telefonning narigi tomonidan menga tabrik kela boshladi. Hayron bo'ldim.

“Mardik” ordeniga loyiq ko'rilibsan, tabriklayman! Hozirgina Prezident farmonini o'qidim. Unda sening ham isming bor ekan”. Kasbim taqozosi bilan bo'ladigan har qanday “trevoga” mening ichki muvozanatimni buza olmagan. Qanchalik sovuqqon bo'lmayin, kursdoshimning taqdirlanganim haqidagi “trevoga”si ichki hissiyotlarimni bir necha marotaba junbishga keltirdi. O'sha lahza yonimda onam ham bor edi. Birinchi bo'lib xushxabarni eshitganicha jimgina yig'lay boshladi.

Vatanni sevish, uni ko'z qorachig'idek asrash barchamizning burchimiz. Ammo o'z burchingni ado etsang-u, yurtning seni mukofotlansa, bilmadim, bu holatni so'z bilan tasvirlab berolmayman. O'zbekistonda yashayotgan 37 milliondan ortiq inson taqdiri ishonchli qo'llarda ekaniga amin bo'ldim. Qilayotgan amallarimizning yaxshisi ham, yomoni ham javobsiz va e'tiborsiz qolmas ekan.

“Vatanparvar” muxbiri Sherzod SHARIPOV yozib oldi.

Ajdodlar merosi

AMIR TEMURNING DO'STI HOJI SAYFUDDIN

LASHKARBOSHI

Amir Temurning o'nlab lashkarboshilari qatorida Hoji Sayfuddin Nikudariy alohida o'rin tutadi. Amir Hoji Sayfuddin Amir Temurning eng ishonchli do'sti va ishonchli safdoshlaridan biri edi.

Amir Temur eng mas'uliyatli va og'ir vazifalarni farzandlaridan ham unga ko'proq ishonardi va yuklardi. U umrining oxirigacha Amir Temurga sodiqligicha qoldi.

U Loy jangidan tortib ko'plab yurishlarda Amir Temurga madad bo'lgan va janglarda katta g'alabalarni qo'lga kiritishda jonbozlik ko'rsatgan.

Dastlab u Joku Barlos, Oqbug'o, Elchi Bahodir, Davlatshoh Baxshilar qatorida Amir Husayn qo'shinida xizmat qilgan. U xojasi uchun jonini xatarga qo'yib, fidokorlik bilan janglar qilgan bo'lsa ham Amir Husaynning nafsi ustun kelib, o'z lashkarboshilarining moliga ta'ma qiladi va ularni muhassilga topshirib, katta mablag' olishni buyuradi. Ularning janglarda qo'lga kiritgan o'ljalarga nisbatan ikki barobar mablag' talab qiladi va muhassilga havola qiladi.

Amir Sayfuddin va boshqa lashkarboshilar bu mablag'larni turli qiyin vaziyatlarda ishlatib yuborgan va bundan katta pulni hozir topib bera olmasdi. Albatta, bu adolatsizlik va ta'magirliklar Amir Temurning tabiatiga zid edi va shu qiyin pallalarda ularga yordam qo'lini cho'zadi. O'zi mablag' to'plashga bosh-qosh bo'ladi, Amir Temur hatto u o'zining jufti haloli bo'lmish – Amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'oning tilla taqinchoqlarini ham o'sha mablag'ga qo'shib berib yuboradi. Amir Husayn o'z singlisining tilla taqinchoqlarini ko'rsa ham ko'rmaslikka oladi. Amir Temur 3 000 dinor hisobidan eng zotdor otlarini tortiq qiladi. Amir Husayn bunga ko'nmasdan naqd pul talab qiladi. Amir Temur unga ushbu mablag'larni yetkazib beradi va amirlarning gardanidagi qarzdan ozod etadi. Albatta, uning bu jo'mardligi lashkarboshilarga ta'sir qilmagan qolmaydi va ular o'zlari istab, sohibqiron tomoniga o'tadi.

Amir Temur 1366-yildan Kesh va Qarshi hokimi sifatida ish boshlaydi.

Amir Husayn (1366–1370-yillarda Movarounnahr hukmdori bo'lgan) bilan Amir Temur o'rtasida nizolar kuchayib borgan, o'z kuyovi va ittifoqchisi bo'lgan sohibqironni yo'q qilish payiga tushgan paytlarda ham Hoji Sayfuddin uning yonida turib, Amir Temurning himoyasiga mas'ul bo'lgan.

Sharafiddin Ali Yazdiy Qarshi shahrini zabt etishda Hoji Sayfuddin faol bo'lgani va hatto nujum ilmini yaxshi bilganini, jangni bir kunga kechiktirganini, Amir Temur unga quloq solganini aytib o'tgan. Amir Temur mard va jasoratli sarkarda ekanini ulug'lab, hatto o'zining juda nozik ishlangan, oltin bilan ziynatlangan kamarini amir

Sayfuddin beliga bog'lagan.

Amir Husayn Amir Temurga ikkinchi marta muxolifatchilik qiladi va uni yo'qotish payiga tushadi. Amir Temur o'z lashkarboshilari bilan bu borada mashvarat o'tkazadi. Barcha bahodir va lashkarboshilar qatorida Hoji Sayfuddin Amir Husaynga ishonmaslikni va uning masalasini bir yoqlik qilishni so'rashadi.

Keyingi harakatida Amir Temurning ulug' lashkarboshilar so'zini inobatga olganini va ularning fikrlariga quloq solganini ko'rish mumkin.

1376-yilda Amir Temurning o'g'li Jahongir Mirzo qazo qilgandan keyin Sayfuddin Nekudariy ham dunyodan ancha sovib haj ziyoratiga borgan. Sharafiddin Ali Yazdiy bu haqda "Va Sayfuddinbek bu jihatdan barcha ishdin elikuini yuvub, dunyo bilan hech e'tiqodi qolmay, ijzat tilab, Ka'bag'a bordi" deb uning tushkunlikka tushish sabablarini keltirib o'tgan.

Sayfuddinbek Hijoz safaridan kelgandan keyin Amir Temurga Eron mamlakatida bo'lgan podshohlarning ahvollarini bildirgani va arz qilgani haqida Sharafiddin Ali Yazdiy yozib qoldirgan. Sayfuddinbekning bu gaplari qaysidir ma'noda Eron yurishlariga sabab bo'lgan bo'lsa, ajab emas. Chunki rostdan ham o'sha paytda boshboshdoqlik va adolatsizliklar kuchli bo'lib, bu yerlardan o'tib-ketuvchi savdogarlar va hojilar qiyinchilikka uchrar edi. Bu tartibsizliklar, albatta tashqi-iqtisodiy va diplomatik aloqalarning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatar edi. Amir Temur bu ahvolni tahlil qilib, o'sha davr sahnasini juda yaxshi ko'ra olgan va yo'llarning tinchligini, ularning ishchanligini ta'minlashni, qurish va qayta ta'mirlash, yagona kommunikatsiya tizimlarining xavfsizligini kuchaytirishga kirishgan. Demak, Amir Temurning Eronga qilgan qator yurishlarining jiddiy sabablari bo'lganini ushbu manbalardan anglash mumkin.

Bu fikrni Sharafiddin Ali Yazdiy ham quyidagicha ifoda etgan: "Ul mahalda Eron viloyatida har bir mamlakatda bir jamoat bosh chiqarib, podshohlik qilar edilar. Hazrat sohibqiron Turon mamlakatini musaxxar qilg'ondin so'ng muborak xotiriga tushdikim, Eron viloyatini zabt qilg'ay", deya Eronga yurish sabablarini ochib bergan.

To'xtamishxonning Tabrizga yurishi Amir Temurning bu yerlarni zabt etishiga turki bergan sabablardan biri edi.

To'xtamishxonning Tabrizdagi bosqinidan keyin "Bu xabar sohibqironing a yetti, musulmonlar uchun ko'ngli asr-u malul bo'ldi va bu jihatdin Eron viloyatining zabti'ga xotirin



qo'yub vojib ko'rdikim, ul viloyatlarni zabt qilg'aykim, mundin nari anda yoaag'i kirmagay. Aning uchunkim, Eron viloyatida andoq podshohkim, Eron viloyatini zabt qilg'ay, yo'q. Va bir necha podshohkim bor erdi, barchasi bir-biriga yaag'i erdilar".

Uning uch yillik yurishlarini mushohada etsak, shulardan ba'zilarini keltirib o'tamiz: "Malik Izuziddin Luri Kuchek (Kichik Lur-G'arbiy Eron)ning hokimi erdi va mundin burun Maxozg'a borg'on karvonni urub, molini olib erdi. Bu so'zlarnikim, hazrat sohibqiron eshitti, chovuk xotirida kechtikim, ul badbaxtlardin hajjohlarning (hojilarning – Sh.O') intiqomini tortqay".

Sharafiddin Ali Yazdiy Xurramobodning taqdiri ham shunday yakun topganini yozib qoldirgandi: "Xurramobodkim, ul o'g'rilarning o'ltirur yeri erdi, buzuldilar". Shu mahalda jangchilardan Oq Temur Bahodur, Umar Abbas jangda qazo qiladilar.

Oradan oz fursat o'tib, Amir Temurga "turkmanlar zulm va fasod eliklarini uzatib, musulmonlarga tashvish berurlar va Hijoz karvoniga (Makka va Madinani o'z ichiga olgan muqaddas hudud) mutaarriz bo'lurlar va hech kishini ul yo'ldin o'tgali qo'ymaslar", degan xabar keladi.

Amir Temurning Eronga qilgan yurishlarida Sayfuddinbek ham qatnashgan va unga yo'l ko'rsatib, maslahatlarini berib borgan. Yurishlar davomida Tehron, Semnon va Qum oralig'idagi yerlarda qo'shin o'g'ruqi qishloq qilganda ham ushbu katta o'ljalor ortilgan karvonlarni qo'riqlashni unga topshirib, o'zi Forsga yurishni davom ettirgan.

Hoji Sayfuddin To'xtamishxonga qarshi olib borilgan yurishlarda ham faol bo'lgan va eng katta tashkiliy ishlarning bajarilishida bosh-qosh bo'lgan. Uning amirzoda Umarshayx va Iki Temur bilan birga Sirdaryoga ko'prik qurganligi ham ma'lum.

U Amir Temur bilan quda-andachilik rishtalari bilan ham bog'langandi. Mironshoh Mirzoning o'g'li Abu Bakrga qizini uzatgan. Bu fakt ham Hoji

Sayfuddin Amir Temur xonadoniga qanchalik yaqinligi va obro'-izzatidan darak beradi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning Amir Sayfuddin nomini hurmat-izzat bilan qayta-qayta ta'kidlab o'tishiga qaraganda, uning obro'si katta bo'lgan. 1390-yilda To'xtamishxon masalasini hal etish bo'yicha chaqirilgan qurultoyda ham u Amir Temur qo'shinining amir ul-umarosi bo'lgan Jahonshoh, Shamsiddin Abbas bilan birga alohida to'y bergan.

Sharafiddin Ali Yazdiy Amir Temurning Muhammad Sultonshoh, Hoji Sayfuddin va Amir Jahonshoh Bahodur kabi amirlaridan xursand va xushhol bo'lganini alohida ta'kidlab, agar ular haqida alohida to'xtalsa, uzundan uzun tarixlari borligini ta'kidlab o'tgandi.

Hoji Sayfuddin 1391-yildagi Qunduzcha jangida ham katta jasorat va namuna ko'rsatgan. Shu jangga birinchi bo'lib Hoji Sayfuddin maydonga kirib kelgan va dushmanning so'l qanotiga qaqshatqich zarba bergandi.

Amir Temur 1392-yilda besh yillik yurishga ketganda, o'zining eng ishongan do'sti va qo'mondoni Hoji Sayfuddin o'zi yo'qligida saltanat ahvolini boshqarish va nazorat qilish vazifasini topshirgan. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, oradan ikki yil o'tib, ular Avnik qal'asi atrofida – Sharqiy Anadoliyada ko'rishadilar. Amir Temur undan Samarqanddagi ahvolni so'raganda, "Davlatgirda hech kishiga had yo'q tururkim, viloyatlarga tik boqa olg'ay. Barcha el, turk-u tojik va raiyat, sipohiy rafohiyat va huzurda tururlar va kecha-kunduz duodin o'zga ishlari yo'q turur".

Amir Temurning yaqin do'sti, safdoshi va lashkarboshisi bo'lgan Hoji Sayfuddin tarixini chuqur o'rganish va uning jasoratlari, sadoqati va vatanparvarligini yoshlar ongiga singdirish bugungi kunda dolzarb masaladir.

Shohista O'LJAYEVA,
tarix fanlari doktori, professor

9-fevral – Alisher Navoiy tugʻilgan kun

ALISHER NAVOIY KASHFIYOTLARI

SVETOFOR,
FOTOAPPARAT,
LIFT
VA
BOSHQALAR

Ulugʻ shoir va mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning oʻgʻli Umarshayx bilan koʻkaldosh (emikdosh) boʻlib, keyinchalik Umarshayx va Shohruxning xizmatida boʻlgan. Otasi Gʻiyosiddin Bahodir Abulqosim Boburning yaqinlaridan, mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi edi.

Alisher bolalik chogʻlari koʻp kitob oʻqidi. Qurʻoni karimni yod oldi. Uning quvvayi hofzasi juda kuchli edi. Shoir bolaligida Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini ham yod olgan. Uning yigitlik chogʻlarida 50 ming bayt gʻazalni yod bilgani haqida maʼlumotlar bor.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, yosh Alisherning isteʼdodidan mamnun boʻlgan mavlono Lutfiy, uning:

*Orazin yopqach, koʻzumdin sochilur har lahza yosh,
Boʻylakim paydo boʻlur yulduz, nihon boʻlgʻach quyosh.*

matlaʼli gʻazalini tinglab: “Agar muyassar boʻlsa edi, oʻzimning oʻn-oʻn ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu gʻazalga almashtirardim...” degan.

Alisher Navoiy 15 yoshida shoir sifatida tanilgan. Turkiy tilda Navoiy, forsiyda Foni taxallusi bilan ijod qilgan.

1469-yilda Navoiyning doʻsti temuriy Husayn Boyqaro Hirotni egallab, Xuroson hukmdori boʻladi. Shu vaqtdan eʼtiboran, Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi. U mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadi. Shu yili Xuroson hukmdori Navoiyni davlat muhirdori etib tayinlaydi, 1472-yili vazir boʻladi.

Xondamirning qayd qilishicha, 1480-yillar davomida Alisher Navoiy oʻz mablagʻlari hisobidan Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlarida bir necha madrasa, **40 ta rabot, 17 masjid, 10 xonaqoh, 9 hammom, 9 koʻprik, 20 ga yaqin hovuz qurgan** hamda taʼmiratlarini. Ular orasida Hirotdagi “Ixlosiya”, “Nizomiya” madrasalari, “Xalosiya” xonaqohi, “Shifoia” tibgohi, Qurʻon tilovat qiluvchilarga moʻljallangan “Dorul-huffoz” binosi, Marvdagi “Xusraviya” madrasasi, Mashhaddagi “Dorul-huffoz” xayriya binosi va boshqa noyob meʼmoriy yodgorliklari bor.

Saroy amaldorlariga Navoiyning bu kabi faoliyati yoqmaydi va turli fitnalari orqali Husayn Boyqaro bilan munosabatlarini buzadi. Shunday qilib, Navoiy egallab turgan mansabidan ozod etilib, 1487-yili Astrobod shahriga hokim sifatida yuboriladi. Bu yerda u ikki yil xizmat qiladi. Mazkur muddat nihoyasiga yetgach, Husayn Boyqaro unga Hirotda qaytib, hokimiyatda mansabga ega boʻlishiga ruxsat beradi. Lekin Navoiy bu taklifni rad etadi. Rad javobiga qaramay, Boyqaro sultonning yaqin kishisi lavozimini taklif etadi. Bunday lavozimda Navoiy barcha davlat ishlari bilan bogʻliq ishlarda qaror qabul qilish huquqiga ega edi.

SHU VAQTDAN hazrat Alisher Navoiy hayotining yangi bosqichi boshlanadi va u koʻproq ijod bilan

shugʻullanadi. U yaratgan asarlarning katta qismi aynan shu davrga tegishli. Navoiy temuriylarning soʻnggi hukmronlik yillarida (1370–1506) yashab ijod qilgan. Shuning uchun uning asarlarida jamoat ruhi, davrga xos muhim muammolar ustundir. 1490–1501-yillar Navoiy eng nafis, ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlarini yaratgan.

QIZIL, SARIGʻ, YASHIL

Maʼlum boʻlishicha, Alisher Navoiy oʻz asarlarida bugungi kunda bizga xizmat qilayotgan ayrim narsalar haqida ham yozib qoldirgan ekan. Inomjon Abdiyevning maqolasida shunday deyiladi: **“Sheʼriyat sultoni taxayyul otida shunchalar uzoqlarga parvoz eta olganki, uning oldida nafaqat tezlik, balki vaqt, asrlar ham chikora”**. Masalan, manzumalarida davri uchun butunlay begona boʻlgan turli timsollar uchraydiki, goʻyo Navoiy bobomiz tafakkur gʻaladonida bunyod boʻlgan ilmiy kashfiyot, bashorat va farazlarini satrlari qatiga singdirib yuborgandek.

Masalan, mutafakkirning goʻzal gʻazallaridan birida shunday satrlar mavjud:

*Xilqatim to aylamish jonon qizil, sarigʻ, yashil,
Shuʼlayi ohim chiqar har on qizil, sarigʻ, yashil.
Shishadek koʻnglimdadir gulzori husning yodidini.
Tabodoning aksidek alvon qizil, sarigʻ, yashil.*

Gʻazalda inson ruhiy holati nozikligi, sirliligi, odam surati bilan uygʻunlikda ekani juda nozik holatda tasvirlangan. Ulugʻ shoir tanlagan uch rang – qizil, sarigʻ, yashil oʻzining barcha tovlanishlari bilan namoyon boʻladi. U garchi yor tavsifiga bagʻishlangan boʻlsa-da, yuqoridagi satrlarni oʻqib, sizning xayolingizda ham bugun butun dunyoda mashinalarning qatnovini tartibga solib turgan svetofofor gavdalanganiga shubha yoʻq. Toʻgʻri, bir qarashda bu sheʼr va svetofoforning bir-biriga umuman aloqasi yoʻqdek tuyuladi. Ammo ranglar silsilasi, ularga yuklangan vazifa ikkisini bir-biriga bogʻlab turganini ilgʻash u qadar qiyin emas.

MAʼLUMKI, qizil rang taqiq belgisi, yor dastlab oshiqning sevgisini rad etadi, noz qiladi. Sariq rang tayyorgarlik, oshiqning rangi sargʻayib, figʻoni koʻkka oʻrlayvergach, mashuqasining koʻngli ham unga iliy boshladi. Yashil rang – bu yoʻl ochiq degani. Gʻazalda ham yor turfa ranglardagi kiyimlarda koʻrinish berib, oshiqning koʻnglini ezadi. U yashillikka burkanganda vasl ayyomi boshlandi. Darvoqe, hazrat Navoiy baytlarida ilk bor namoyon boʻlgan bu ramz-svetofofor amerikalik olim Garret Morgan tomonidan 1916-yilga kelib kashf qilindi.

NEGATIV – QORA VA OQ

Navoiyning “Favoyid ul-kibar” asaridagi mana bu satrlarga eʼtibor qarataylik:

*Nega tarking etmay, ey charxki: shom-u axtaringdin –
Qarodur yuzing, va lekin... oq erur yuzingda xoling!..*

Mazkur baytning ikkinchi misrasida fototasvir ibtidosi – negativ koʻrinishlar (oq rangning qora, qora rangning oq boʻlib koʻrinishi) haqida gapirilayotgandek goʻyo. Oʻrni kelganda eslatish joizki, birinchi fotoapparat fransuz olimi Lui Jak Dapter tomonidan 1839-yilda kashf qilingan. Ilk negativlar ham aynan shu yili Foks Talbot tomonidan ixtiro etiladi. Navoiy bobomiz esa ulardan deyarli 350 yil oldin bu haqda maʼlumot bergan.

OYNAYI JAHON

1928-YILDA Toshkentda ixtirochilar B. Grabovskiy va I. Belyayevskiy elektr-nur yordamida harakat qilayotgan tasvirni bir joydan uzatadigan va qabul qiladigan apparat tayyorlab, uni muvaffaqiyatli sinovdan oʻtkazadi. Yurtimiz poytaxti Toshkent televideniye vatani sifatida tan olindi. Ammo hazrat Navoiy ulardan ham ancha yillar oldin buni koʻra olgandi. Soʻzimizning isboti uchun “Farhod va Shirin” dostonidan olingan quyidagi misralarni keltirish kifoya:

*Gʻaroyib koʻp huvaydo boʻlgʻusidir,
Bas, anda shakl paydo boʻlgʻusidir...
Koʻrunib har zamone – koʻzga bir shakl,
Koʻz olgʻoch, boʻlgʻusidir... oʻzga bir shakl!
Chu boʻldi jilvagar oshkor yuz nav,
Anga ham boʻlgʻusi – timsol yuz nav!*

Maʼlumki, ekranda kadrlar bir sekundda 24 marotaba almashib, jonli tasvir koʻrinadi. Shakl – bu kadrlar, desak, ularning almashinuvidan turli gʻaroyibot, jonli surat, rangin qiyofalar silsilasi namoyon boʻladi. Eng ajablanarlisi, Navoiy bobomiz bu qurilmani ham oʻz holicha “oynayi jahon” deb nomlaydi. Farhod uzoq Arman oʻlkasi malikasining husn-u jamolini aynan shu vosita orqali koʻrib, unga mahliyo boʻlib qoladi.

ROBOT

“Farhod va Shirin” dostonini mutolaa qilishda davom etsak, bugun tilimiz ancha kelishib qolgan XX asr yaratilgan biri – robotlar haqidagi satrlarga ham koʻzimiz tushadi.

*Boʻlur darvoza ichra oshkora,
Temur jismiki qilmish paykar oro.
Erur odamgʻa monand-u mushobiq,
Ilgida temurdan yoy qilib zix.
Va lekin ushbu paykar roy to farq,
Boʻlib oʻtdek temur oʻrchin aro gʻarq.*

Maʼnosi shunday: “U odamga juda ham oʻxshar, qoʻlida oʻtkir oʻq tortilgan temir yoyni ushlab turar edi. Boshdan oyoq sovutga oʻralgan bu temir odam ichidan yonib turadi”.

OʻZI YURUVCHI ZINA

Xamsaning toʻrtinchi dostoni – “Sabʼayi sayyor”da eskalator va lift haqidagi farazlarni oʻqigan mashhur sharqshunos olim Bertels ham hayrat ogʻushida qolganini yashirmagan ekan.

*Poyalar maqdamida boʻlgʻay past.
Aylagʻay bir-biri yuziga nishast,
Chun sekiz poch qat boʻldi tamom,
Aylagach shoh oʻz yerida maqom.
Yana ul poyalar baland oʻlgʻay,
Taxtidan shoh bahramand oʻlgʻay.
Kim, qayon shah boʻlur nishotangez,
Oz ishorat bila yugurgay tez.*

MAʼLUMKI: “Shoh bu taxtga chiqadigan boʻlsa, pillapoyalar uning qadam qoʻyilishi uchun pasayib, bir-birini ustiga yotadi. Shoh shu sakkiz poyaning hammasini bosib oʻtib, oʻz taxtiga oʻtirgach, u zinalar yana baland koʻtariladi.

Shoh qay tarafga qarab oʻtirishni xohlasa, ozgina ishora kifoya. “Bu yerda keyingi asrlarning, yanayam aniqrogʻi, 1892-yilda amerikalik kashfiyotchi Jessi Reno tomonidan yasalgan eskalatorlar haqida gap ketayotganiga shubha yoʻq...”

Faxriddin YERNAZAROV tayyorladi.

9 февраля – день рождения Алишера Навои

РОМАН «НАВОИ» КОВАЛ ПОБЕДУ!

Текущий год богат на события, ушел в историю первый месяц дни, которого прошли торжественно и, как всегда, с неизменным успехом. Последний месяц зимы только начался, но и он будет в памяти каждого, живущего на планете Земля, кто хоть раз соприкоснулся с произведениями Алишера Навои. Мы помним и будем помнить его, пока существует человечество, как – вселенского поэта, философа, государственного деятеля, который «весь мир завоевал своим пером», как поется в популярной песне.

И всё это благодаря его последователям, выдающимся литераторам Узбекистана и мира, кто, восторгаясь его произведениями, в переводах коллег Алишера Навои, в невероятно сложных поисках каждого слова из словаря своего народа, уважая букву, звучание слова, чтобы сохранить оригинал и донести его дух до своего народа.

Среди тысяч мировых литераторов – переводчиков вечно живой в нашей памяти, неповторимый поэт, писатель, ученый-литературовед, общественный деятель, народный писатель Узбекистана, академик Академии наук Узбекистана Муса Ташмухамедов, которого цивилизация знает под литературным псевдонимом – Айбек, чье 120-летие со дня рождения широко отмечается мировой общественностью.

Муса Ташмухамедов родился в городе Ташкенте в семье ткача. Очень впечатлительный и вдумчивый мальчик с огромным удовольствием слушал разные истории и сказки, обладал довольно мугучим творческим воображением, памятью, – все это в будущем проявилось в выборе его жизненного пути, который был многогранен. Как и многие узбекские литераторы Айбек начал свой литературный путь с поэзии, первое его стихотворение «Чья земля?» было напечатано в 1923 году.

Еще с юных лет Айбек был увлечен произведениями великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои и прежде чем написать произведение о нем, писатель тщательно изучил и просмотрел огромный архивный материал. После окончания Среднеазиатского университета, серьезно приступает к работе над созданием образа великого мыслителя, поэта и политического деятеля, мечтая, чтобы над землей, как соловей, летели песни Навои.

1939 год... В огне бурлит Земля, пылает огонь на земле стран мира, началась Вторая мировая война. Айбек усиленно работает над поэмой о великом поэте, в 1939 году она выходит в свет. Но мечта создать роман не выходит из головы литератора.

В 1943 году Айбек создает роман «Навои», где автор показал Алишера Навои исключительно как общественного и государственного деятеля, творческий путь которого прошел мимоходом.

«С появлением романов, в том числе и «Навои», узбекская ... литература не только заговорила на языке большой прозы, но и вступила окончательно на путь, представляя важнейший рубеж, устанавливая существенную веху, – проводил своеобразный литературоведческий анализ коллеги, поэт России Александр Наумов, автор перевода на русский язык многочисленных поэтических строк Айбека, – На протяжении литературной

жизни мы видим Айбека – лирика, который искал новый путь среди многовековых нагромождений старой поэтики, застывших, как лава древних извержений. Видим его в приближении к темам новой жизни, в яростном отрицании старого. Конец 20-х – начало 30-х годов были для Айбека как бы естественным переходом от лирики к поэзии сюжетной, к собственно поэмам; тем самым он нащупывал свой путь к той большой прозе, которая и оказалась подлинной вершиной его творчества. Характерно, что на тему своего знаменитого романа «Навои» он написал одноименную поэму, вероятно, важнейшее качество айбековской прозы – органичное сочетание историзма и психологической точности. «Литература – всегда история. История – всегда литература», – заметил однажды сам Айбек, уверен, что именно эти слова проливают свет на природу его дарования. И поэтому творческий опыт Айбека представляет для сегодняшних и будущих читателей особенный интерес».

«... Я думаю, – сказал однажды Айбек, – что к какой бы исторической эпохе писатель ни обратился, в конечном счете он никогда не ошибется, если за всеми ее непривычными или даже странными особенностями будет искать чувства и помыслы, которые ему знакомы. Люди всегда люди, с тех самых пор, как они ими стали, а ведь это произошло во времена доисторические. Часто авторы монографий о творчестве автора, его произведениях, иногда как бы забывают о такой справедливой точке зрения, что Айбек, поднимает много проблем, волновавших тогдашнее общество. И это не случайная описка. Ведь важнейшие проблемы, поднятые в романе, – борьба за национальное становление, за создание социальной справедливости, за родной язык, были в 30-е годы нашего века главными в Узбекистане, и не будет неверным сказать, что сам интерес к национальной истории, к становлению национальной литературы вызвал в те годы обостренный интерес к личности Навои».

Много написано и о творчестве самого Айбека, авторы монографий внимательно и интересно прослеживают творческую историю важнейших его произведений, стремясь в какой-то мере раскрыть ту историческую и литературную обстановку.

Мемориальный Дом – музей Айбека, каждый экспонат которого полон пафоса, будет ли это исторические фотографии, письма, книги, число которых не счесть, изданное полное собрание сочинений автора – 20 томов, как и у героя его романа Алишера Навои. И все же выделяется среди всех книга со скромным названием «Мой Айбек. Воспоминания», автор которой супруга Зарифы Саиднасыровой, доктора наук, верной подруги, той, кто была до последнего мгновения с Айбеком, помогая ему в жизни, творчестве, особо когда он работал

над романом, оригинал отметивший выход в свет 80-летие в прошлом году, а эту юбилейную дату первого перевода отметим в этом году накануне 80-летия Победы во Второй мировой войне.

«... В 30-х годах Айбек начал собирать материалы о жизни и творчестве Алишера Навои. На основе этих материалов, работая в холодном доме, под слабым светом керосиновой лампы. Всё его существо словно безграничный океан кипит, бушует, разливается, – Ойнур Ташмухамедова директор Дома – музея Айбека, научные сотрудники Гулчехра Шакирова и Отабек Мухитдинов бережно, озвучивая, перелистывают страницы книги Зарифа опа, – Он продолжает писать стихи, поэмы, романы... Но всю жизнь он размышлял о Навои, писал о Навои...»

На протяжении всей жизни Айбек просеивал сквозь «сито» своих знаний и собирал жемчужины вселенной Навои. Задолго до основания Академии наук, работая в Комитете наук, он написал сочинение «О Навои», посвященное жизни и творчеству поэта. Исследование было выполнено на основе тщательного изучения, начиная с 1930-х годов различных трудов, в особенности, такого авторитетного исторического труда, как «Равзат ас-сафа» труда Мирхонда, персидского историка по всеобщей истории, принадлежавшего к кругу Алишера Навои. Также большого количества документальных источников, касающихся Навои, и самих произведений великого поэта. В трагические годы 1937 года эта рукопись Айбека была утеряна. Прошло много лет, Айбек получил Государственную премию за роман «Навои», стал академиком, депутатом... В один из дней та рукопись каким-то чудом нашлась, когда этого никто не ожидал, принесли в марте 1955 года...»

Все, что переживал Айбек с началом Второй мировой войны, нашло отражение в поэтических строках, вышедших в первые же дни в газетах: «Смерть врагу!», «Победа за нами», «Молодым бойцам», «Люби Родину» и другие, посвященных молодым отправляющимся на фронт, их родителям и любимым.


«Какие только испытания человек не способен перенести... Чего только мы не желали, чтобы не умереть с голода и не

дать погибнуть нашим детям... в таких тяжелых условиях Айбек писал и завершил свой роман «Навои». В начале декабря 1942 года Айбек отправился на фронт вместе с группой артистов, отправились с подарками и вестями с Родины на встречу с узбекскими воинами, стоявшими на обороне Москвы. Айбек, который собрался писать роман об узбекских солдатах, сражавшихся на фронтах, отправился на фронт с радостью, – строки писем Айбека возвращали в сороковые грозные года, – «Фронт мне дал мне очень много. Фронтовики народ особый, замечательный. Мне много показали и ещё больше рассказали. Теперь могу смело приступить к созданию книги о войне. Бригада еще долго будет на фронте...».

Путешествуя с группой артистов по фронту, он провел множество встреч. Каждая встреча начиналась с торжественного приветствия и завершалась концертом. Отделившись от художественной бригады, Айбек, в одиночку, отправился на Воронежский фронт, приехал в войска, расположившиеся на линии фронта, ходил по окопам. Он видел сожженные деревни, разрушенные до основания города. Так появились стихи «Бесследно исчезнувшая деревня», «Я вышел из своей берлоги» и многие другие строки. Находясь в местах боев и живя за линией фронта, Айбек старался поддержать своим творчеством людей, сражавшихся за победу.

С самого начала войны всеми своими творческими силами вдохновением и поэзией он служил народу... Голова Айбека полна идей и замыслов, под слабым светом керосиновой лампы, когда голодный, когда сытый, в 1942 году он завершил роман «Навои», принесший ему большую славу... Однажды Айбек получил письмо от читателя – инженера. В нём говорилось, что роман «Навои» мог написать только писатель, сравнимый с самим Навои. Это были правдивые слова!», – сотрудники Дома-музея Айбека медленно захлопнули книгу Зарифы Саиднасыровой «Мой Айбек. Воспоминания».

Флора ФАХРУТДИН,
специально для «Vatanparvar»



Texnologiya

KIBERXAVFSIZLIK VA SUN'IY INTELLKTING HARBIY SOHADA O'RNI, ISTIQBOLLARI VA XAVFLARI

Kiberxavfsizlik va sun'iy intellekt (SI) harbiy sohada so'nggi yillarda muhim o'rin tutmoqda. Ular nafaqat jangovar operatsiyalarni optimallashtirishda, balki strategik qarorlar qabul qilishda, logistika va ma'lumotlar tahlilini tezlashtirishda, hatto kiberhujumga qarshi kurashishda ham muhim vositaga aylangan.

Sun'iy intellekt va mashinani o'rganish tizimlari kiberxavfsizlikning samarali va tezkor yechimlarini yaratish uchun qo'llanilmoqda. Kiberxavfsizlik harbiy tizimlarda ham xuddi shu darajada muhimdir, chunki jahonning ko'plab davlatlari, shu jumladan AQSh va Rossiya, o'zlarining mudofaa tizimlarini butunlay raqamlashtirib, kiberhujumlar orqali ko'plab resurslarga tahdid solmoqda. Kiberxavfsizlik texnologiyalari jismoniy va raqamli infratuzilmalarni himoya qilish, xaritalar, radarlar, uzatuvchilar, dronlar va boshqa tizimlarni himoya qilishda qo'llanilmoqda.

SUN'IY INTELLKTING JANGOVAR OPERATSIYALARDAGI ROLI

Sun'iy intellektning harbiy sohada qo'llanilishi bir nechta yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

AVTOMATIZATSIYA: jangovar robotlar, dronlar va avtomatizatsiyalashgan tizimlar insonlar ishtirokini minimallashtirib, xavfsiz va samarali bo'lgan operatsiyalarni amalga oshiradi.

MA'LUMOTLAR TAHLILI VA QARORLAR QABUL QILISH: SI tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqtda tahlil qilish, tahdidlarni aniqlash, muqobil variantlarni hisoblash va eng samarali qarorlarni qabul qilishda yordam beradi.

STRATEGIK VA TAKTIK TAHLIL: sun'iy intellekt jangovar maydonda har qanday o'zgarishlarni aniqlash, strategiyalarni ishlab chiqish va jangovar vaziyatni optimallashtirishda yordam beradi.

Bu borada namuna sifatida quyidagi xalqaro startaplar va kompaniyalarni keltirish mumkin.

Harbiy texnologiyalarni rivojlantirishda nafaqat yirik kompaniyalar, balki startaplarda ham katta rol o'ynaydi. Ushbu startaplar zamonaviy kiberxavfsizlik, SI va avtomatizatsiyani harbiy sohada qo'llash uchun innovatsion yechimlar yaratishga harakat qilmoqda.

PALANTIR TECHNOLOGIYES – bu AQShda joylashgan kompaniya, asosan katta ma'lumotlarni tahlil qilish va sun'iy intellekt asosida qarorlar qabul qilish tizimlari bilan shug'ullanadi. Palantirning asosiy mahsuloti – Palantir Foundry va Palantir Gotham tizimlari, ular katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va vizualizatsiya qilish imkonini beradi. Palantirning tizimlari AQShning

harbiy va razvedka agentliklari tomonidan keng qo'llaniladi, shuningdek kompyuter tarmoqlari va kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun ishlatiladi. Palantirning yirik shartnomalari, jumladan kiberxavfsizlik, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlarni tahlil qilish sohalarida amalga oshiriladi. Palantirning texnologiyalari ma'lumotlar bazasini tahlil qilishda yordam berib, kiberhujumlar va xavf-xatarlarni aniqlash imkonini yaratadi.

ANDURIL INDUSTRIYES – bu yana bir yangi startap bo'lib, zamonaviy harbiy texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Kompaniya asosan sun'iy intellekt va dronlar texnologiyalariga e'tibor qaratadi. Andurilning **Lattice** tizimi o'zida sun'iy intellekt yordamida real vaqtda tarmoqni tahlil qilish imkoniyatini beradi, bu esa kiberxavfsizlik va himoya tizimlarini kuchaytirishga yordam beradi. Shuningdek, Andurilning dronlar va robot texnologiyalari qo'llanilayotgan chegaralar xavfsizligi va kiberhujumlarga qarshi kurash uchun foydalaniladi. Andurilning maqsadi xavfsizlikni ta'minlash va kiberhujumlarni aniqlashda sun'iy intellekt va avtomatizatsiyani integratsiya qilishdir. Ular hozirda AQShning harbiy va razvedka tashkilotlari bilan hamkorlik qilmoqda.

Harbiy sohada kiberxavfsizlik va sun'iy intellektning o'rnini tobora ortib bormoqda. Yangi texnologiyalar jangovar operatsiyalarni yanada samarali qilish, xavfsizlikni oshirish va kiberhujumlarga qarshi kurashishda muhim rol o'ynashga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyaning rivojlanishi va kiberxavfsizlikka oid yechimlarning kengayishi bilan birga xavf-xatarlar va etnik muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Kiberxavfsizlik va sun'iy intellekt (SI) harbiy sanoatda tobora muhim rol o'ynamoqda. Bu sohada startaplar yangi texnologiyalar yaratish, harbiy strategiyani optimallashtirish va jangovar qurollarni yanada samarali qilish uchun innovatsion yechimlarni taklif qilmoqda. Quyida ushbu yo'nalishda faoliyat yuritayotgan startaplar va ularning texnologiyalari haqida ma'lumot beraman.

DEDRONE – dushman dronlarini aniqlash va ularga qarshi himoya qilish uchun avtomatlashtirilgan AI tizimlariga ega.



Dedrone Tactical

Base Kit

Base Kit enables RF detect and defeat on one mast. It includes ruggedized laptop, several ruggedized radio frequency (RF) sensors, RF-based defeat capability, mast and associated peripherals.

- DedroneTracker AI C2 for autonomous system performance with minimal false positives
- RF Detection with 360 Degrees Spatial Coverage
- Robust library of 250 protocols
- EW Defeat Capability
- Easily expandable to incorporate multiple remote nodes or other tactical sensors via a mesh network

EXTENDED KIT

SHIYELD AI – dronlar uchun ishlab chiqilgan maxsus tizim bo'lib, sun'iy intellekt orqali xavfli hududlarni tahlil qiladi, aniqlaydi.



SILVUS TECHNOLOGIYES – kompaniyasi muhim operatsiyalar uchun keng polosali simsiz ulanishni taqdim etadi. Taktik harakatlar vaqtida yuqori tezlikda ma'lumotlarni uzatish uchun yangi standartni o'rnatadigan ilg'or MANET radio qurilmalarini, tarmoq tizimlari va imkoniyatlarini taqdim etadi.

DOCK SC4240P

THE MOST POWERFUL DOCK TACTICAL NETWORKING SYSTEM AVAILABLE

Delivering best-in-class MANET radio performance, DOCK SC4240P seamlessly scales from tactical Personal Area Network to wide-area mesh networks in any operational environment


KEY FEATURES

- Low SWaP Profile with streamlined cabling & unified power reduces operator load-out
- Up to 4 Watts output power (8W effective, thanks to TX Eigen Beamforming)
- Up to 100 Mbps Data Throughput




STREAMCASTER PRISM – DEPLOYMENT KIT


Includes everything you need to assemble, install and rapidly deploy.



TOMAHAWK ROBOTICS – modullari sun'iy intellekt bilan takomillashtirilgan bo'lib, ochiq arxitektura va foydalanish qulayligi uchun yaratilgan ekotizim, inson-mashina jamoasini taktik tarmoq bo'ylab muammosiz bog'lash uchun xizmat qiladi. Bu bir qancha qurilma va operatsiyalarni sinxron bajarish imkonini beradi.




ANDURIL – harbiy texnologiyalarning keyingi avlod dasturiy ta'minotlari va hisoblash texnikalarini ishlab chiqish, kemasozlik va samolyotlarni loyihalash sohasidagi ilg'or tashkilot hisoblanadi.



PALANTIR TECHNOLOGIYES – AQShning ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqarish sohasida faoliyat yurituvchi kompaniya. 2003-yilda Peter Thiel, Nathan Gettings, Joe Lonsdale, Stiven Koen va Aleksandr Karp tomonidan tashkil etilgan. Kompaniya asosan katta hajmdagi murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish va ulardan foydalanish imkonini beradigan dasturiy ta'minot yaratadi. Palantirning mahsulotlari turli sohalarda, jumladan hukumat, xavfsizlik, moliya va sog'liqni saqlashda qo'llaniladi.

Kompaniya ikki asosiy mahsulotni taqdim etadi: **Palantir Gotham** va **Palantir Foundry**. Gotham asosan hukumat va xavfsizlik agentliklari tomonidan, Foundry esa tijorat sektori tomonidan qo'llaniladi.



SUN'IY INTELLEKTNING POTENSIAL ZARARLI TOMONLARI

SI odatda, texnik zaifliklar va noto'g'ri qarorlar kabi zararli harakatlarni keltirib chiqarishi mumkin. SI tizimlarining asosiy xavfi – ular noto'g'ri ma'lumotlar bilan o'qitilgan bo'lsa, qarorlar noto'g'ri bo'lishi mumkin. Agar SI tizimi, masalan, harbiy qarorlar qabul qilishda yoki taktik harakatlarni rejalashtirishda ishlatilsa, noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlar asosida noto'g'ri qarorlar chiqarishi mumkin. Buning natijasida noto'g'ri strategiyalar, xatoliklar yoki hatto zudlik bilan noto'g'ri reaksiya berilish xavfi mavjud.

“ADVERSARIAL ATTACKS” – sun'iy intellektga hujumlar tahdidi. Kiberjinoyatchilar va dushman davlatlar, sun'iy intellekt tizimlariga qarshi “adversarial attacks” (*qarshi hujumlar*) amalga oshirish orqali tizimni manipulyatsiya qilishlari mumkin. Bunday hujumlarda, masalan, tasvirlarni yoki ma'lumotlarni qasddan manipulyatsiya qilib, SI tizimini noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majburlashadi. Harbiy tizimlarda bu turdagi hujumlar radarlar, dushmanni aniqlash tizimlari, dronlar va boshqa avtomatlashtirilgan tizimlarning ishlashini buzishi mumkin.

AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLAR VA ULARGA ISHONCHSIZLIK

Avtomatlashtirilgan harbiy tizimlar (*masalan, robot jangchilari yoki dronlar*) inson aralashuvsiz qarorlar qabul qiladi. Agar bu tizimlar to'g'ri ishlab chiqilmasa yoki xatolik yuzaga kelsa, tashqi ta'sir qilsa, tizim noto'g'ri maqsadlarni tanlashi mumkin, ya'ni begonalarga hujum qilishi yoki hatto o'z harbiy xodimlariga zarar yetkazishi mumkin.

Kiberhujumlar va “Distributed Denial of Service” (DDoS) hujumlari Kiberjinoyatchilar harbiy tizimlar va qurilmalarga qarshi DDoS hujumlarini amalga oshirishlari mumkin. Bu hujumlar tizimlarning ishlashini sekinlashtirish yoki to'xtatishga olib keladi. Harbiy tarmoqlarda kommunikatsiya va ma'lumot uzatish tizimlari o'chib qolsa, bu taktik harakatlarda samaradorlikni pasaytirishi, hatto ishdan chiqarishi mumkin.

TIZIMLARGA KIRISH VA “BACKDOOR” YASHIRIN KIRISH NUQTALARINI YARATISH

Kiberjinoyatchilar sun'iy intellekt tizimlarida “backdoor” (*yashirin kirish nuqtasi*) qoldirishi mumkin. Bu orqali ular harbiy tizimlarga kirib, ularni boshqarishi, zararlashi yoki kerakli vazifalarni buzishi mumkin. Masalan, dushman dronlarini boshqarish yoki radar tizimlarini manipulyatsiya qilish orqali noto'g'ri ma'lumotlar kiritishi mumkin.

“MAN-IN-THE-MIDDLE” (MITM) HUJUMLARI

Harbiy tizimlar orasidagi kommunikatsiya tarmog'ida “Man-in-the-middle” hujumlari amalga oshirilishi mumkin. Bu hujumda kiberjinoyatchilar yoki dushman davlatlar tizimlar orasidagi ma'lumotlarni o'zgartirishi yoki ularni o'g'irlashi mumkin. Tizimlar orasidagi bevosita aloqalar manipulyatsiya qilinishi, noto'g'ri ma'lumotlar uzatilishi va natijada tizimlar noto'g'ri qarorlar qabul qilishiga olib kelishi mumkin.

HUJUMLAR VA SI TIZIMLARINI BUZISH (EXPLOITATIONS)

Kiberhujumchilar harbiy SI tizimlarining zaif tomonlarini aniqlab, ularga qarshi eksploatatsiya (*foyul tizimi yoki dasturning zaifligini topish*) hujumlarini amalga oshirishlari mumkin. Bunday zaifliklar dasturiy ta'minotdagi xatolar yoki tizim dizaynidagi nuqsonlar orqali bo'lishi mumkin. Hujumchilar tizimni teskari ishlashga majbur qilib, harbiy qurilmalarni va tizimlarni boshqarishi yoki o'z manfaatlariga xizmat qilishga majburlashi mumkin.

Texnologik yechimlar va imkoniyatlar rivojlanib borar ekan, har qanday zamonaviy ishlanmalarni ma'lum qatlamda ishlatishdan oldin, chuqur tekshiruvlardan o'tkazish va mavsumiy, davomli auditlarni amalga oshirish talab etiladi. Xodimlar malakasini doimiy oshirish hamda kuchli injinerlarga yetarlicha imkoniyatlar yaratib berish zarur.

Malik QURBONOV,
CYBER-BRO kiberxavfsizlik kompaniyasi rahbari

"SAVODSIZLIKKA

QARSHI

KURASHAMIZ!"

(Millatparvar
Isroiljon Ibrohimov
hayotiy portretiga
chizgilar)

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidchilik Turkiston tarixida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu harakatning asl maqsadi Turkistonni mustamlaka zulmidan qutqarib, mustaqillikka olib chiqish bo'lib, bu maqsadni amalga oshirish uchun jadidlar turli sohalarda, xususan ta'lim, adabiyot, teatr, ijtimoiy jamiyatlar va boshqa sohalarda faoliyat olib bordi. Bunchalik sohalarning bo'lishi o'z-o'zidan emas, albatta, sababi bunday keng miqyosdagi ishni olib borish uchun moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanishni taqozo etgan. Bu davrda esa jadidlar bilan birga Turkiston tadbirkorlari va ishbilarmonlari yelkama-yelka turib, ularni ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlab turgan.

Sovet Ittifoqi davrida qonli qatag'onlarda jabr ko'rgan xalq qahramonlari xotirasini tiklash va abadiylashtirish harakati Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tobora ko'proq ahamiyat berila boshlandi. Mustaqillik yo'lida o'z jonini tikkan qahramonlarning yorqin misollaridan biri o'z davrining buyuk arbobi, siyosiy qatag'on davrida ko'plab insonlar singari hayoti barbod bo'lgan Isroiljon Ibrohimovdir. Uning uzoq yillar davomida jamoatchilik ongidan yashiringan hikoyasi, jamiyat oldidagi xizmatlari yana bir bor e'tiborni tortmoqda, uning va safdoshlarining xotirasi barhayot davom etmoqda.

ISROILJON IBROHIMOV qatag'on qurboniga uchragan ma'rifatparvar va elparvar inson, o'tgan asrning 20-yillarida mustaqil O'zbekiston uchun kurash olib borgan "Milliy istiqlol" uyushmasi rahbarlaridan biri edi. U 1868-yili Toshkent shahrining Shayxovanditohur (*Shayxontohur*) dahasi 2-illa mahallasida yashovchi Ibrohimjon oilasida tug'ilgan. Otasi savdo-sotiq bilan shug'ullanib, o'z davrining mashhur tadbirkorlaridan biri hisoblangan. U zamonaning ma'rifatliligi va saxovatli boylaridan biri bo'lib, yoshligidan boshlab otasining izidan borib, savdo-sotiqning sirsinoatlarini o'rgana boshlaydi. U asosan to'qimachilik, xususan mato va ipak savdosi bilan shug'ullangan. U Toshkent, Qo'qon, O'sh, O'ratepa, shuningdek Rossiya imperiyasining boshqa shaharlarida, jumladan Qozon, Ufa, Olmaota, Moskva va Sankt-Peterburgda bir qancha savdo do'konlari egasi bo'lgan.

Ibrohimov savdo-sotiq bilan faol shug'ullangan, u Qoryog'di mahallasida joylashgan karvonsaroyda savdo karvonlari bilan ham yaqin aloqada bo'lgan. U nafaqat oilasi va hamkasblarini ta'minlabgina qolmasdan, xorijga ko'p sayohat qildi,

tijorat aloqalarini kengaytirdi. Xorijga qilingan sayohatlar orqali uning dunyoqarashi o'zgardi, Turkistonning holatiga chetdan baho bera boshladi. Shuning uchun ham Isroiljon Ibrohimov ijtimoiy mas'uliyatni chuqur his qilgan inson edi, buni uning xayriya faoliyatida ko'rishimiz mumkin. U kam ta'minlangan va muhtojlarga, ayniqsa ko'p bolali oilalarga yordam berdi, shuningdek ta'lim muassasalarini qo'llab-quvvatlash uchun mablag' ajratdi.

ISROILJON IBROHIMOV hayotida xalq orasida "juma yirtish" nomi bilan mashhur bo'lgan amaliyot – juma namozi oldidan mato bo'laklarini (*asosan ipak*) tarqatish an'anasi alohida o'rin tutgan va bu unga "Isroil shoyifurush" laqabini bergan. U odamlarga, shu jumladan qiyin paytlarda yordam bergan va qo'llab-quvvatlagan shaxs hisoblangan. To'qimachilik mahsulotlarini tarqatish bo'yicha ushbu faoliyat nafaqat xayriya, balki jamiyatning qo'llab-quvvatlashi va og'ir hayot sharoitlarida qolganlarga yordam ko'rsatish ramzi bo'lgan muhim ijtimoiy ishora edi.

20-yillarda Isroiljon Ibrohimov shafqatsiz qatag'on va bolsheviklar siyosati sharoitida o'zbek xalqining manfaatlarini himoya qilishga intilgan tashkilotda qatnashib, siyosiy hayotda faol ishtirok etdi. Bu harakat "Milliy ittifoq" nomi bilan mashhur bo'lib, Turkistonda bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelganidan beri mahalliy ziyolilarning ko'plab vakillari, tadbirkorlar va an'anaviy qadriyatlarini himoya qilishga intilgan faollar qatag'on xavfi ostida qoldi.

ISROILJON IBROHIMOV Toshkentning Egachi va Qashqar mahallalarida yaqin do'sti va safdoshi Munavvarqori Abdurashidxonovga ichki va tashqi hovliligi maktab qurib bergan. Bundan tashqari, millatimiz ziyolilariga Turkiya davlatidan keltirgan kitoblarni tez-tez ulashgan. Katta yer va mol-mulkidan tushgan

foйда evaziga ularni moddiy ta'minot masalalari bilan muntazam ta'minlab turgan. Rus, nemis, fransuz tillarini yaxshi bilgan. Fransiya davlatining faxriy fuqarosi sifatida u yerda katta e'tiborga loyiq ko'rilgan. Parijda o'sha davridayoq O'zbekiston nomidan savdo yarmarkalarini tashkil qilgan.

"Yo'qolsin boylar, yashasin kambag'allar!" degan munofiqona shiorni bayroq qilib olgan tuzum imon-e'tiqodi, saxovati bilan ajralib turgan ajdodlarimiz tamoyiliga zid ish ko'rdi. Aldovlar asosiga qurila boshlangan yangi jamiyat nafaqat moddiy, balki ma'naviy boy insonlarning boshiga ne-ne balolar yog'dirdi. Boshqa alifboni targ'ib etish bilan xalqimizni umuman savodsiz, omiga aylantirdi. So'ng balandparvoz shiorlar bilan **"Savodsizlikka qarshi kurashamiz!"** deya bong urdi. Boshdan oxirigacha shum niyatga asoslangan hayot qurishga kirishdi. Odamlarga yolg'on gapirish o'rgatila boshlandi. Eshik va darvozalarda qulf paydo bo'ldi. Odamlar orasida shubha va gumon bolalagandan bolaladi. Millatimizning asl farzandlarini birlashtirgan "Milliy istiqlol" uyushmasining shiori **"Gullasin Vatan, yashasin ilm-u urfon!"** bir chetga ulotqirildi.

1929-yil 6-noyabrda "Milliy istiqlol" uyushmasi a'zolari qatorida josus sifatida hibsga olingan. SSSR OGPU kollegiyasi tomonidan RSFSR jinoyat kodeksining 58-modda 2-bandi (*qurolli qo'zg'olon*) bilan ayblanib, 1931-yilning 29-aprelida xalq dushmani nomi bilan otib o'ldirishga hukm qilingan. Sud hujjatlarida uning dafn etilgan joyi haqida ma'lumot yo'q, bu esa Ibrohimov kabi shaxslar haqidagi ma'lumotlar rasmiylar tomonidan qanday yashirilganining muhim dalili bo'lib qolmoqda.

KO'P YILLAR DAVOMIDA

Isroiljon Ibrohimov nomi unutildi, shaxsi rasmiy tarixdan o'chirildi, jamiyat va xalq oldidagi xizmatlari barham topdi. Faqat

1980–1990-yillarda, Stalin vafotidan keyin va oshkoralik davrida tarixiy adolatni tiklash yo'lidagi dastlabki qadamlar qo'yildi. Isroiljon Ibrohimov oradan qariyb 60 yil o'tib, 1989-yil 21-aprelda O'zbekiston SSR prokuraturasi SSSR oliy Sovet prezidiumining 1989-yil 16-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining qatag'on qurbonlariga nisbatan odil sudlovni tiklash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qaroriga asosan oqlandi.

Davlatimiz rahbari 2020-yil 31-avgust kuni Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyiga tashrifi chog'ida nuroniylar, ulamolar va ziyolilar bilan muloqotda "Bu insonlar haqiqiy yetakchilar, ilg'or ziyolilar, adabiyot, madaniyat namoyandalari, boshqacha aytganda, millatimizning, xalqimizning eng sara vakillari edi. Tasavvur qiling, agar ular qatag'on qilinmaganida Vatanimiz rivoji uchun, ilm-fan, iqtisodiyot, madaniyat va adabiyotimiz uchun qanday buyuk ishlar qilgan bo'lar edi, xalqimizni oldinga boshlardi. Shu bilib turib qilingan. Bugun buni armon bilan eslaymiz", deya ta'kidladi.

Ana shu taklif va vazifalarni hisobga olgan holda, o'tgan yili 8-oktabrda Prezidentimizning **"Qatag'on qurbonlarining merosini yanada chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"**gi farmoyishi e'lon qilindi.

Farmoyishda qatag'on qurbonlari merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish uchun ilm-fan, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat ishlari bilan shug'ullanadigan turli mas'ul tashkilotlarga keng gamrovli taklif va vazifalar berildi.

SHU JARAYONDA Isroiljon Ibrohimov kabi qatag'on qurbonlari uchraganlarning nomlari yana bir bor jamoatchilik ongiga kirib, hikoyalari darslik, muzey va hujjatlarda o'z o'rnini topdi. Bu esa tarixiy xotirani asrab-avaylashda muhim qadam bo'ldi, qolaversa, xalq o'z ozodligi uchun qancha qurbonlar bergani va ularning ma'naviy merosini kelajak avlodga yetkazish imkonini beradi.

Dalerjon MIRZAYEV,
Tarix instituti tayanch
doktoranti

Tarixning o'qilmagan sahifalari

JIZZAX QO'ZG'OLONINING ASL MOHIYATI



MARDIKORLIKKA QARSHI QO'ZG'OLON NIMADAN KELIB CHIQQANDI?

Birinchi jahon urushi unda ishtirok etayotgan Rossiya imperiyasini tobora holdan toydirmoqda edi. O'n minglab askarlar jangda qurbon bo'ldi. Rossiya oliy bosh qo'mondonlik shtabi vaziyatdan chiqish uchun harbiy vazirlikdan "Armiya ehtiyojlari uchun salmoqli miqdorda kuch ajratishni" talab qildi. Bu kuchni harbiy vazirlik mustamlakalardan to'plashni o'yladi. Natijada Rossiya imperatori Nikolay II 1916-yil 25-iyunda Turkiston, Sibir va Kavkazdagi 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklarni front ortidagi xizmatlar uchun safarbar qilish to'g'risida farmon chiqardi.

Turkiston general-gubernatori Aleksey Kuropatkinga zudlik bilan farmonni amalga oshirish buyurilib, **Sirdaryo viloyati zimmasiga 87 ming, Samarqandga 38 ming, Farg'ona zimmasiga 50 ming kishi yuborish majburiyati yuklandi.** O'lkada safarbar qilinuvchilarning ro'yxatlari tuzila boshlandi. Shusiz ham urush va mustamlakachilik zulmi ostida ezilgan xalq bundan qattiq norozi bo'ladi. Petrogradan ba'zi tabaqadagilar tovon evaziga mardikorlikdan ozod qilinishi mumkinligi to'g'risida qo'shimcha ko'rsatmalar yetib kelganidan keyin xalq noroziligini qo'zg'olonga aylanib ketadi.

G'alayonlar Xo'jand shahrida boshlanib, Samarqand viloyatining turli hududlariga, Toshkent, Farg'ona vodiysi va nihoyat, Jizzaxga yetib kelib, butun Turkistonni qamrab oldi. Qo'zg'olon natijasida minglab odamlar hibsga olinib, ularning yuzdan ortig'i o'limga mahkum etilgani qo'zg'olonning ko'lami qanchalik katta bo'lganini ko'rsatadi.

USHBU VOQEALARGA OID

muxtasar tadqiqotlar o'zbekistonlik yirik olimlar Hamid Ziyoyev, Dono Ziyoyeva va boshqalar tomonidan olib borilgan. Oradan shuncha vaqt o'tishiga qaramay, tariximizning ushbu kunlariga taalluqli yangi manbalarga takror va takror duch kelaveramiz.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasining ilmiy arxivida 1916-yildagi mardikorlikka olishga qarshi g'alayonlarning guvohlari, Rossiyaning sovuq o'lkalariga mardikorlikka olib ketilgan hamyurtlarimiz, bevosita ushbu voqealarning ishtirokchilari, 1916-1917-yildagi Turkiston va Rossiya imperiyasidagi voqea-hodisalar, Peterburgdagi 1917-yilgi fevral inqilobi, oktabr to'ntarishlari haqidagi xotiralari saqlanadi. Ushbu esdaliklar 1959-yilda O'zFA Tarix va arxeologiya institutining katta ilmiy xodimi professor Habib Tursunov tomonidan o'sha vaqtda hayot bo'lgan qo'zg'olon qatnashchilarining xotiralariga tayanib yozib olingan. Oradan 3 yil o'tib, 1962-yilda olim o'zi to'plagan xotiralar jamlanmasini Samarqand muzeyiga taqdim etadi. Habib Tursunov qo'zg'olon qatnashchilaridan to'plangan ma'lumotlar asosida 1963-yili **"O'rta**

Osiyo va Qozog'istonda 1916-yilgi qo'zg'olon" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

Qayd etilgan qo'zg'olon ishtirokchilarining olti nafari Kattaqo'rg'on tumani, uch nafari Oqdaryo tumani, bir nafari Zomin tumani, bir nafari Jizzax tumanida istiqomat qilgan bo'lib, hujjatlarda ular yashab turgan manzillarning ayni vaqtdagi nomlanishi bilan birga, 1916-yilda qo'zg'olon yuz bergan vaqtdagi nomlari ham keltirilgan.

MUHAMMAD DAMINOVNING XOTIRALARI

Muhammad Daminov 1897-yilda tug'ilgan. Yashash manzili: 1916-yilda Kattaqo'rg'on uyezdi, Kalqo'rg'on volosti, Qushbegi qishlog'i. 62 yoshda.

1916-yilda Kalqo'rg'on volostining mingboshisi Sayyid Bekjon degan katta yer egasi edi. Uning shaharda ham uyi bo'lib, hozir bu uyda rayon xalq sudyasi turadi. Kalqo'rg'on volostida Kalqo'rg'on, Rajabali, Muxtor, Moshravot, Charxin do'mlari bor edi. Bizning oilamiz Muxtor do'mligida edi. Bu yerim do'mi-oqsoqoli Abdusamat do'm edi. Muxtor do'miga 10 ta qishloq qarar edi. Bular Polvontepa, Xo'jalar, Qushbegi, Qirg' eshak, Uch ravot, Boy aka, Muxtor Qilich, Uzun bo'z, Birinchfurush qishloqlari edi. Har bir qishloqning ellikboshilari bo'lar edi. Ularning hammasi katta yer egalari edi. Asosiy ulpandan tashqari qo'shimcha dud puli olinar edi. Ikkisi ham pul ko'rinishida yig'ilar edi. Kambag'al xalq soliqlarni to'lay olmay, qarz bo'lib qolar edi. Natijada ko'p kishi yerdan voz kechib, qarzga o'tkazib, yersiz qolgan edi. Mening yerim 3 tanob edi. Oilamizda 11 jon bo'lib, qashshoqlikda kun kechirar edik.

1914-yildan jahon urushi boshlanib, soliqlar oshdi. Uning ustiga harbiy soliq ham to'lanar edi. Shu paytlar urush ehtiyoji uchun odam olish ovozi chiqib qoldi. Biz paxta, tamaki ekar edik. G'allani don bozoridan sotib olardik. Urush sabab narx-navo oshib ketib juda qiynaldik. Paxta ekishda boylardan olingan bo'nak hisobiga bizlardan juda ko'p barobar pul yig'ilar edi. Masalan, bir botmon paxta hisobiga 5 so'm bo'nak qarz olinsa, hosil yig'ilgach, 4-5 barobar qilib, 20-25 so'm miqdorda qaytarilishi kerak edi.

1916-YILDA "Nikolay odam olarmish" degan mish-mishlar tarqaldi. Do'mlar, ellikboshilar odamlarni yig'ib, majlis o'tkazib, mardikorlikka odam berasizlar deb talab qilishdi. Buni eshitgan xalq birdan g'alayon ko'tardi. 1916-yilning iyul oyida bozor kunlarining birida Kattaqo'rg'onning eski shahar bozorida xalq to'polon qilib, "Odam bermaymiz!", "Mardikorlikka bormaymiz!" deb qo'zg'olon ko'tarib, yangi shaharga jo'nadi. Men ham ular orasida edim. Xalq madrasa oldiga borishi bilan yangi shahar tomondan, kazarmadan chiqqan askarlar qo'zg'olonchilarga qattiq o'q otib, faqat bizning qishloqdan 4-5 kishi yarador bo'ldi. Bizning uchastkamizdan (*Boy aka qishloqli*) qo'zg'olonga aktiv qatnashgan Mullajon ismli qashshoq bir dehqonga o'q tegib, yarador bo'ldi va 4-5 kun deganda uyda o'ldi. Doktor qaramadi.

Odamlar mardikorlikka bormaymiz, deb baqir-chaqir qilib uyga qaytdi.

Kattaqo'rg'on aholisi eski vaqtda bir necha urug' va qabilalarga bo'lingan. Ular arab, saroy, qiyot, tojik, mang'it, xitoy va boshqalardan iborat edi. Bizning Muxtor, Moshravot do'mlar aholisining ko'pchiligi arablardan edi. Eski shahar ichidagi qo'zg'olon ham qatnashdi.

Ertasi kuni Muxtor do'mida arablar qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonga Chiyilloq qishloqli Ernazar (*laqabi "Birinchpurush"*) boshchilik qildi. Shu kishi otga minib, hamma xalqni qo'zg'olonga boshladi.

"Rabochiy bermaymiz!" degan shior bilan boylar, ellikboshi, oqsoqol, volostnoylarga qarshi kurash boshlandi. Ernazar ko'p odamlarni yig'ib shahar tomon yo'llandi. Aziz Xo'ja mozoriga yaqinlashganlarida shahar tomondan faytonda kelayotgan Hoji Mahmud (*laqabi "Bo'yni egri hoji"*) degan bozor begi ro'para kelib qoladi. Qo'zg'olonchilar "Ana bitta boy chiqib qoldi", deb uni qora kaltak qilishadi. Shu payt uning opasi paydo bo'ladi va ukasining ustiga o'zini tashlab, uni o'limdan saqlab qoladi. Xalq ot bozorining ko'prigi orqali Kattaqo'rg'on shahriga yuraveradi. Ko'prikda rus askariy qismlari qo'zg'olonchilarga o'q uzishadi. Xalq yana qochishga majbur bo'ladi.

SHU VOQEALARDAN 3-4 KUN O'TGACH, Kalqo'rg'on volostining mingboshisi Sayyid Bekjon rus askarlari hamrohligida Polvontepaga hamma ellikboshilarni yig'ib, mardikor olishni boshladi. Har 4 xonadondan 1 mardikor berilishi majburiy edi. Bizning Qushbegi qishlog'imizda 30 ta xo'jalik bo'lib, 8 mardikor berishimiz kerak edi. Bizning qishloq ellikboshisi Ortiq degan kishi "Mardikor berilsin!" deb turib oldi. Mardikor bermagan oila 1 000 tangadan pul berishi kerak edi. Mening otam ham 1 000 tanga pul to'lashga majbur bo'lgan.

Amakim mardikorlikka ketayotgani uchun otam meni olib qolishga harakat qildi. Bir tanob yerimizni garovga qo'yib, Pashkov degan rus sudxo'ridan ming tanga olib, ellikboshiga berdi. Shuning evaziga men mardikorlikdan qoldim. Sayfi degan amakimiz yersiz edi va shuning uchun mardikorlikka ketdi. Boylarning bolalari ro'yxatga olinmadi. Kambag'allar ming tanga qarzni boylardan olib, boylar yanada boyidi. Kambag'allar esa yeridan ajraldi.

Mardikorlarni shaharda 10-15 kun saqlab, keyin Rossiyaga jo'natdi. Mardikorlikka ketayotganlarning kiyim-kechagi, bir oylik oziq-ovqati ham xalqning bo'yniga tushdi.

1959-yil 13-aprel

YARLAQOB BEKNAZAROVNING XOTIRALARI

Yarlaqob Beknazarov 1916-yilda Jizzax uyezdi, Jom volosti, Chuqurtoq qishlog'ida yashagan. 1959-yilda Zomin rayoni Zomin sovxosi 4-bo'limda yashaydi. Baxshi 71 yoshda.

Mardikorlikka olish haqida podsho farmoyishini mingboshi, ellikboshi, starshinalar ma'qullab, ro'yxatga kirishdi. Xalq bunga norozi bo'lib, to'da-to'da qo'zg'aldi. Bizning Chuqurtoq

qishlog'idan 500 chog'li kishi qo'zg'olon ko'tarib, starshina Mulla Mahkamboyning uyiga bostirib bordi. Qo'zg'olonga kambag'al dehqon, so'zga usta Turdibek Xudoynazarov bosh bo'ldi. Mulla Mahkamboy uyining mehmonxonasida ekan. Uning uyiga 50 chog'li odam bostirib kirdi. Men derazadan qarab turdim. Turdibek Xudoynazarov starshinaga qarab shunday dedi: "Sen starshina bo'lib, xalq bilan kelishib ish qilasanmi yoki nuqul kambag'allarni mardikorlik ro'yxatiga bitasanmi?!"

Mulla Mahkamboy shunday javob qildi: "Yo'q, Mulla Turdibek! Agar hamma shaharlar mardikor bersa, biz bermay turolmaymiz, bermaydigan bo'lsangiz maslahat qilurmiz". Shunda Turdibek "Sen allaqachon ro'yxatni tuzgansan, uni bizga ber!" dedi. Starshina "Ro'yxat menda yo'q" dedi. Turdibek "Biz seni o'ldirgani, ro'yxatni esa olgani keldik. Sen ro'yxatni Jom volosti mingboshisiga bergansan, hozir biz seni volostnoy oldiga olib boramiz, sen ro'yxatni olib berasan" dedi. Xalq starshinani o'rab olib, "Yur-yur!" deganча sudrab uyidan olib chiqdi.

SHU 500 CHAMALI KISHI BO'LIB, starshinani qurshab, Jomga tomon jo'nadik. Qo'ng'irbov qishlog'iga yetishimizga oz qolgan ediki, birdan oldimizga ot choptirib, Mulla Yusuf Qozi va Abdurahmon xatanak - starshinaning qarindoshlari chiqib qoldi. Ular xalqni to'sib, turtib starshina Mulla Mahkamboyini qutqarmoqchi edi. Shunda xalq starshinani olomon qilib, birzumda o'ldirdi. So'ngra Mulla Yusuf Qozini o'ldirmoqchi bo'lib yopishdilar. U qochdi, baribir uni tutib hovuzga tashlashdi. Faqat qarindoshlari hovliqib kelib qolishdi va xalqqa yulvorib, o'limdan saqlab qolishdi. Uning o'lmay qolganini bizning boshimizga ming baloni yog'dirdi.

Xaloyiq hay-haylab Jomga yo'l tutdik. Bizdan qochib qutulgan Abdurahmon xatanak Zomonga borib, pristun (*uchastka pristavi*)ga xabar qilgan ekan. Pristun odamlari bilan Jomga mingboshi Mulla Fozil oldiga kelgan ekan. Jomni hamma tomondan xalq o'rab oldi. Bir tomondan, bizning qishloq bo'lsa, boshqa tomondan, Qirg' qishloqliklar o'rab olishgan edi. Qirqliklar ham o'z ellikboshilarini o'ldirgan ekan.

Shu payt ahvoli tang bo'lgan Mulla Fozil mingboshi va pristun otga minib qurshovdan chiqishga urindi. To'pponchalaridan o'q otib, Zomin tomonga qochishdi. Ortidan quvlagan olomon uni Zomonga yetmasdan tutib olib, qatl qilishdi. Pristunni esa Zominda qo'lga olishganini keyin eshitdim. Bu voqeadan keyin ko'p kishilar qamaldi. Biz ko'pchilik bo'lib toqqa qochdik. Faqat omon-omon bo'lgach uyga qaytdik. Biz qishloqqa qaytgach, qo'zg'olonchilardan omon qolgan Mulla Yusuf Qozi meni va 9 ta hamrohimni "Starshinani o'ldirishda va meni kaltaklashda qatnashgan", deb ko'p so'roq qildirdi.

1959-yil 21-aprel

Nashrga tayyorlovchi: Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi bosh muhofizi Mahmudxon YUNUSOV

Hujjatli drama



Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, mislsiz qahramonliklar ko'rsatgan samarqandlik o'zbek o'g'loni Sharif SAMATOV xotirasiga bag'ishlanadi.

QATNASHUVCHILAR:

Sharif Samatov – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, Italiya hukumati tomonidan “Jasorat” medali bilan taqdirlangan. O'zbekiston Respublikasining “Shuhrat” medali bilan mukofotlangan. Partizanlar otryadining razvedkachisi (*rus, italyan, nemis tillarini mukammal bilgan*)

Zahro xola – Sharif Samatovning onasi

Safiya – Zahro xolaning qizi (*do'konda sotuvchi*)

Ra'no – Zahro xolaning nabirasi (*maktab o'quvchisi*).

Antoni Befizkorelli – Italiya “Milliy ozodlik harakati” partizan guruhlarini komandiri

Ambruzani Renato – italyan partizani (*yashirincha ixtiyoriy partizanlar otryadiga odam to'plovchi*)

Nikolay, Vasiliy – Sharif Samatovning konslagerdagi do'stlari

Kampir va chol – o'rmon yaqinida yashovchi va partizanlar otryadiga oziq-ovqat yetkazib beruvchilar

Aleksandr Danilov – tergovchi

Obershturmbanfyurer

Gans – nemis askari

Aleksey Dubich – Internatsional nomli partizanlar guruhining boshlig'i

Yetorina Frezo – partizan qiz (*italiyalik*)

Yakov Isayevich Bakman – Samarqand shahri komiteti xizmatchisi, Sovet ittifoqi jurnalistlar uyushmasi a'zosi, yozuvchi

Yuriy Nikolayevich Aleskerov – SamDUning Tarix fakulteti professori, akademik

Qamoqxona boshlig'i va kotibi

I KO'RINISH

Zahro xolaning hovlisi. Katta tut daraxti tagida chorpoya qo'yilgan. Chorpoya ustida xontaxta, uning atrofida ko'rpachalar to'shalgan. Zahro xola ko'rpachada o'tirib, namoz o'qiyapti. Urushga ketgan o'g'li Sharifjonni duo qiladi.

Zahro xola (*o'ziga o'zi gapiradi*). Tinch hayotimizni notinch qilgan urush qurib ketsin. O'g'lim Sharifjonidan hech qanday xat-xabar yo'q. Xudoyim, bolamni o'z panohingda asra (*qo'lini ko'tarib omin qiladi*).

(*Shu payt hovliga Zahro xolaning qizi Safiya kirib keladi*).

Safiya. Assalomu alaykum, ayajonim, yaxshimisiz? Sog'-salomatmisiz?

Zahro xola. Vaalaykum assalom, qizim, kel. Yaxshimisan, eson-omon yuribsanmi? (*Ular ko'rishadi*)

Safiya. Ha, ayajon, nimalar deb o'zingizga o'zingiz gapirib o'tiribsiz, tinchlikmi?

Zahro xola. Hayotdek hovlida nabiraginam Ra'no bilan yolg'iz yashayapman. Kim bilan gaplashaman, o'zimga o'zim gapirib, ichimni bo'shatamanda. Bir necha kundan beri ukang Sharifjonni tushimda ko'ryapman. Biror kor-hol bo'ldimikan, deb o'ylayapman, bolam. Yuragim bezovta, bir yildan beri na xat bor, na xabar. Harbiy komissariatga bordim. Ularga tushuntirdim. “O'g'lim Sharif Samatov 1939-yilda armiya safiga chaqirildi. 1941-yil 22-iyunda Ikkinchi jahon urushi boshlanganda o'g'limni to'g'ridan to'g'ri frontga jo'natishdi. Voronejda tankchilar desanti brigadasida jang qildi. Shundan beri xat kelmayapti”, dedim. Ular menga: “Hammasini aniqlaymiz, xavotir olmang, halok bo'lsa, “qoraxat” kelardi”, deb tinchlantirib yuborishdi. Xavotir olamanda, bolam. Dardimni kimga aytay? Har kuni bitta xonadonga “qoraxat” keladi. O'g'li urushda halok bo'lgan ota-onalarning fig'oni falakka ko'tariladi. Har kuni bitta hovlidan yig'i ovoz keladi. Yuragim bezovta, asirga tushdimikan, deb xavotir olaman, qizim.

Safiya. Nega endi asirga tushdi, deb o'ylayapsiz?

Zahro xola. Tushimda o'g'lim Sharifjon va yana bir qancha odamlar simlar tortilgan joyda o'tirgan emish. Ko'ylaklari yirtilgan, hammasi juda ozg'in emish. Atrof qop-qorong'i ekan. Sharifjon tomonga o'tay desam, tikanli simlar tortilgan ekan. Qo'rqib uyg'onib ketdim. Hamma jangchi askarlarimizni o'zing asra, Xudoyim, ularning qatorida bolaginamni ham asra (*qo'l ko'tarib omin qiladi*).

Safiya. Tushingizni suvga ayting, ayajon. Yaxshilikka bo'ladi. Ukam sog'-salomat keladi hali. Ko'p kuyunavermang, sog'lig'ingizni o'ylasangiz-chi! Qon bosimingiz ko'tariladi. Kasal bo'lib qolmang, deyman-da.

Zahro xola. Aytganing kelsin, qizim. Qayerda bo'lsa ham, Ollohning panohida bo'lsin!

Safiya. Mana sizga non keltirdim (*sumkasidan nonni olib, xontaxta ustiga qo'yadi*).

Zahro xola. Yaxshiyam oziq-ovqat do'konida ishlaysan. Umringdan baraka top, qizim. Sen keltirgan nondan qo'shnilarga ham berdim. Boquvchisi yo'q Siddiqa ammaga ham berdim. Boyaqish ikki kundan beri tuz totmagan ekan. Nonni olib, uzoq duo qildi. Urush o'lsin, urush! Qancha insonlarning yostig'ini quritdi. Urush tufayli bolalar yetim bo'lib qolyapti. Qorni nonga to'ymay, bolalik davrini surmay, kattalar o'rniga bolalar mehnat qilyapti. Ba'zi oilalar kunjara yeb, shishib o'lmoqda. Oq non, bir bo'lak qand anqoning urug'i bo'ldi. Yetim qolgan bolalarning ahvoli tang. Hammasiga urush sababchi.

Bu nonni uyingga olib bor, bolalaringga ber. Menda zog'ora non bor. Achchiqqina mastava pishirgan edim. Hademay Ra'no ham maktabdan keladi. Birga ovqatlanamiz.

Safiya. Ayajon, yolg'iz yashaysiz, Ra'noni sizga qarashib turadi, deb berdim. Bu nonni qizim bilan birga yeng.

Zahro xola. Rahmatli dadangni Samat boqqol deyishardi. Savdodan tushgan foydani yetimlarga, qiynalgan oilalarga berardi. Shunday saxiy insonning o'g'li Sharifjonni Xudo asraydi. Turmush o'rtog'im qo'li ochiq inson edi. Ko'p savob ishlar qilgan. Ota-onaning qilgan yaxshiligi bolalariga qaytadi. Yomonligi ham bolalariga uradi.

Safiya. Ayajon, siz ham, dadam ham hamisha yaxshilik qilgansizlar, savob ishlaringiz farzandlaringizga qaytadi. Xavotir olmang. Nasib bo'lsa, urush tugasa, ukam sog'-salomat uyga kirib keladi. Ertalabdan buyon tuz totmagansiz, men ovqatni suzaman, birgalashib ovqatlanamiz. Ra'no ham maktabdan kelib qoladi.

Zahro xola. Sen dasturxon yozib, choy damlaguningcha mana shu nondan bir bo'lagini Siddiqa ammaga berib kelaman, u juda qiynalyapti, boquvchisi yo'q.

Safiya. Xo'p, ayajon, mehribon ayajonim-ey, bir piyola suv ichsangiz ham birov bilan bo'lishasiz.

Zahro xola. Siddiqa ammaning mazasi yo'q ekan. Bemorni yo'qlash Ollohni yo'qlash bilan barobar, deydilar, qizim. Men tezda berib kelaman.

Safiya oshxonaga kiradi. Zahro xola qo'shnisining holidan xabar olishga chiqadi.

II KO'RINISH

Muallif (1942-yilning iyul oyida Voronej uchun ayovsiz jang bo'ldi. Nemislar shaharga katta talafot yetkazdi. Sharif Samatov jangda og'ir yaralanib, hushidan ketdi va asirga tushdi. Sharif, Nikolay, Vasiliy konslagerda suhbatlashmoqda).

Sharif. Nikolay do'stim, biz asirga tushdik. Poyezdga mindirib, bizni Polsha hududida joylashgan konslagerga olib kelishdi. Asirga tushgan ba'zi jangchilarimizning jarohatlari og'ir bo'lgani uchun vafot etdi. Ha, Polshadan Chexoslovakiyaga, endi Avstriyaning Klagenfurt viloyatidagi Ferlax shahri chekkasida joylashgan konslagerdamiz. Eng og'ir ishni qildirishyapti.

Nikolay. Tosh qirg'ish karyeri bu yer, o'lim zonasi deb ataladi. Lekin qochishning iloji yo'q. Qo'lga tushsak, qiynab o'ldirishadi.

Sharif. Konslagerdagilarga qarab rahmim kelyapti. Ko'zlari kirtaygan, holdan toygan. Qochmasak bo'lmaydi. Biz ham mana shularga o'xshab holdan toyib, bir kun yiqilamiz. Qancha jangchilarimiz ochlikka chiday olmay, halok bo'ldi.

Nikolay. Sharif, sen qochish oson deb o'ylayapsan. Tosh tashiyotganda biror kishi yiqilsa ko'tarib, yordam bermanglar, yordam bergan kishiga ikki, uch barobar ziyod norma beradi ablahlar! Yiqilib qolguncha ishlatadi, so'ng otib tashlaydilar.

Sharif. Men reja tuzib qo'rganman, qorovulni o'ldirish kerak.

Vasiliy. Qochganlarni itlarga talatadi to'ng'izlar! Qochish juda xavfli.

Sharif. Bu yerda qolish ham xavfli, yeganimiz 200 gramm qora non, yarim kosa atala. Baribir o'lamiz.

Vasiliy. Bir necha kishini Berlinga olib ketishdi. Ularning terisini shilib olishar ekan. Odam terisidan qo'lqoplar, har xil buyumlar yasashar ekan, vahshiy hayvonlar!

Sharif. Bizning ham terimizni shilib, biror buyum yasashlarini kutib yotamizmi? Tog'ga borganimizda qulay fursatni qo'ldan bermay qochamiz. Qorovullar uzoqroqda bo'lgan paytda qochish kerak. Soqchini o'ldirib, avtomatini olamiz, mening ishoramni kutinglar. Bir-birimizdan uzoqlashmasligimiz kerak. Boshqalarga ishonmayman, oramizda sotqin yoki ayg'oqchi bo'lishi mumkin. Ishni bajargach, o'rmonga qochamiz. Agar qo'lga tushsak, qiynab o'ldirishadi.

Nikolay. Tushunarli, hozir bir-birimiz bilan pichirlashib gaplashmasligimiz kerak, sezib qolishadi. Bizni otib tashlashadi.

Sharif. Rejamiz ma'qul bo'lsa, endi tarqalamiz.

Shu payt soqchi ovqat, deb baqiradi. Hamma tutqunlar tunuka kosalarini ko'tarib, betoqatlik bilan bo'tqa olish uchun navbatga turadi.

III KO'RINISH

1943-yil 1-may. Sharif, Nikolay, Vasiliy tosh qirg'ish karyerida ishlamoqda. Og'ir toshni ko'tarib chiqishadi. Avtomat ko'targan nemis askari ularga o'shqiradi.

Nemis askari. Shinel-shinel, tezroq qimirlanglar!

Shu payt bitta tutqun yiqilib tushadi. Nemis askari yiqilgan asirning oldiga borib, otib tashlaydi. So'ng tog'da tosh qo'porayotgan Sharif, Nikolay va Vasiliyga imo-ishora qiladi. Ularni qo'riqlayotgan soqchining orqasidan kelib Nikolay boshiga tosh bilan uradi. Sharif soqchini bo'g'ib o'ldiradi. Soqchining avtomatini olib, o'rmon tomon qochishadi.

Sharif. Yaxshiyam yomg'ir yog'di, itlarni olib ketishdi, bo'lmasa itlarni qo'yib yuborishardi.

Nikolay. Gazandalar, baribir iskovich ovcharka itlarini orqamizdan yuborishadi!

Vasiliy. To'xtamanglar, tezroq o'rmon ichkarisiga kiraylik!

To'xtamay yugurishadi. Bir necha kundan so'ng o'rmon chetidagi uyga kelib qolishadi.

Sharif. Ahvolimiz chatoq, ochlik hammamizni holdan toydirdi. Uning ustiga it tishlagan yaralarimiz azob beryapti. Nikolay, sening issig'ing baland-ku (*qo'lini uning peshonasiga qo'yadi!*) Tavakkal qilamiz, kirib, oziq-ovqat, dori-darmon so'raymiz. Sizlar shu yerda o'tirib, meni kutinglar. Men borib razvedka qilib kelaman. Ichkarida nemislar bo'lmasa, kiramiz.

Chol. Agar sizlarga yordam berganimizni nemislar sezib kelib qolsa, uyimizga o't qo'yib, bizni osadi. Men kampirimni partizanlar guruhining komandiri oldiga yubordim.

Sharif. Nima uchun?

Chol. Kampirim partizanlar boshlig'iga sizlar haqingizda xabar beradi. Men sizlarni o'sha yerga, o'rmon ichkarisiga olib boraman. Tezroq bu yerdan ketishingiz kerak. Nemislar bu yerga har daqiqada kelib qolishi mumkin. Partizanlarga yordam beryapsan, deb bizni kechirishmaydi

Oradan biroz vaqt o'tib, kampir kirib keladi.

Kampir. Hoziroq bularni olib borar ekansiz. Boss kutyapti.

Chol. Atrofta hech kim yo'qmi?

Kampir. Kuzatdim, hech kim yo'q. Bemalol yo'lga chiqishingiz mumkin.

Sharif. Otaxon, onaxon, sizlarga katta rahmat. Bergan tuzingiz uchun, mehribonligingiz uchun tashakkur. Nasib etsa, yaxshi kunlarda uchrashamiz.

Sharif onaxonning qo'lini o'padi. Nikolay, Vasiliy ham kelib, kampirning qo'lini o'padi.

Aleksey Dubich. Sharif, qayerdan bo'lasiz? Ona yurtingiz qayer?

Sharif. Ona yurtim – O'zbekiston, Samarqand shahridanman.

Aleksey Dubich. Ooo, Samarqand, qadimiy shahar, madaniyat, ilm-fan markazlaridan bo'lgan. Tarixda Maroqand deb atalgan. Juda yaxshi, sizni bugundan boshlab Alessandro deb ataymiz. (*Nikolayga yuzlanib*) siz Rossiyadanman, dedingiz-a?

Nikolay. Xuddi shunday, o'rtoq komandir!

Aleksey Dubich. Rossiyani ko'p bosqinchilar bosib olmoqchi bo'lgan, buni tarixdan bilsa bo'ladi. Lekin hammasi yengilgan. Biz ham nemis bosqinchilarining ustidan g'alaba qozonamiz. G'alaba yaqin azizlar! (*Vasiliyga qarab*) siz Xarkovdanman dedingiz-a? Juda yaxshi, mana, tanishib ham oldik. Endi soch-soqollaringizni olinglar, yuvinib kiyimlaringizni almashtiringlar, keyin ovqatlanib, yotib dam olinglar. Nikolay va Vasiliyni boshqa otryadga yuboraman. Alessandro, siz biz bilan qolasiz.

Sharif. Xo'p bo'ladi, o'rtoq komandir!

Shu payt xonaga Quadrat kirib keladi.

Quadrat. O'rtoq komandir, ruxsat eting kirishga?

Aleksey Dubich. Kiring, marhamat!

Sharif (*Quadratga darhol jilmayib, qo'l uzatadi*). O'zbekmisiz, do'stim?

Quadrat. Sharif, do'stim, men ona yurtimni rosa sog'inganman. Oilamni, do'stlarimni, sevgan qizimni, hovlimizda sayrab turgan bedanalarni ham – hamma-hammasini sog'indim. Erta tongdan qichqirgan xo'roz, ma'ragan qo'y-qozilarim bir-bir ko'z o'ngimdan o'tadi. Onajonim yopgan issiq non hidi, dasturxoniga qo'yilgan sut-qaymoqlarni sog'indim. Ko'm-ko'k dalalar, bog'larda g'arq pishgan olma, anor, uzum – hammasi ko'z o'ngimdan ketmaydi. Jannatmakon qishlog'imni faqatgina tushimda ko'raman. Urush tugasa, albatta qishlog'imga qaytaman. Mana shular uchun Vatanimni himoya qilaman! Sharif, kel, do'stim, senga bir she'r o'qib beraman.

Sog'inganman sizni, onajon!

*Sog'inganman, o'sgan qishlog'im,
Tinchlik bermay bag'riga chorlar.
Oppoq gulga burkangan bog'im,
Sog'inganman sizni, onajon!*

*Anhorlardan oqar edi suv,
Cho'milardik yotib oftobda.
Bolaligim o'tar edi quv,
Sog'inganman sizni, onajon!*

*Xamir qorib, siz yopgan patir,
Ishahamni qitiqlar edi.
Sharros quyan yomg'irlar tatir,
Sog'inganman sizni, onajon!*

*Dasturxoniga sut, qaymoq qo'yib,
Bolam, ol, deb bo'lasiz halak.
Termilasiz entikib, to'yib,
Sog'inganman sizni, onajon!*

*Ortdan quvdi bolalik davrim,
Oh, naqadar bu osmon baland.
Qo'lim yetmas urinsam harchand,
Sog'inganman sizni, onajon!*

Sharif. Ajoyib she'r ekan, onajonimni eslatib yubording. Tushunaman, Quadrat, tinchlikda hikmat ko'p. Men ham ona shahrim Samarqandni sog'indim. Yer yuzining sayqali deb bejiz aytilmagan. Albatta, yurtimizga yorug' yuz bilan, g'alaba bilan qaytamiz, do'stim! Kel, bir qo'shiq aytib, o'ynab-kulaylik, miriqib dam olaylik!

Quadrat. Juda yaxshi xalq qo'shiqlaridan "Kim oladi-yo shuginani-yo?"ni kuylaymiz.

Sharif dastro'molchasini o'rta qaytib yozib qo'yadi. Dastro'molcha ustiga pul qo'yadi. "Kim oladi-yo shuginani-yo?" xalq qo'shig'ini aytadi. Quadrat egilib o'ynab oladi.

Quadrat.

*Kim oladi, kim oladi shuginani-yo!
Ololmaysan, ololmaysan shuginani-yo!
Ololmaysan, ololmaysan, olib ketarlar,
Yuragingga qayg'u-alam solib ketarlar.
Botir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat!
Shotir bo'lsang ham, o'zingni ko'rsat!*

Sharif. E, yashang, bali, bali qani, bo'sh kelmang!

*Kim oladi, kim oladi shuginani-yo!
Men olaman, men olaman shuginani-yo!*

Shu payt Aleksey Dubich keladi. Biroz ularning oldida turib, o'yinni qiziqib tomosha qiladi. So'ng ularga qarab gapiradi.

Aleksey Dubich. Yashanglar, yigitlar! (*Chapak chaladi*) Ko'ngilchog'lik qilib o'ynab-kulish yaxshi, lekin tiq etgan tovush o'rmonga tez tarqaladi. Atrofta nemislar izg'ib yuribdi. Nasib bo'lsa, g'alaba qilsak, xohlagancha o'ynanglar. Hozir hammangiz yotib dam oling!

Quadrat va Sharif o'yining tushadi. Boshqa partizanlar ham qo'shiladi. Hamma jangchi partizanlar qarsak chalib o'ynaydi.

(Davomi bor)

Ra'no ODILOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi



Nikolay. Jarohatlarim og'riyapti, Sharif (*ingraydi*).

Vasiliy. Chida, do'stim, ovoz chiqarmaylik, atrofta odam bo'lishi mumkin.

Sharif. Men ham zo'rg'a chidab kelyapman. Sabr qilaylik, do'stlarim. Agar ichkarida nemislar bo'lsa, o'rmonga qochamiz.

Sharif sekin borib, uying derazasidan ichkariga qaraydi, chol va kampir o'tirardi, do'stlarini imo-ishora bilan chaqiradi. Ular uyga bostirib kiradi.

Sharif. Assalomu alaykum.

Chol (*o'rman darhol turadi*). Kimsizlar, qayerdan kelyapsizlar?

Sharif. Biz konslagerdan qochdik. Bir necha kundan beri ovqatlanmadik. Do'stlarimning issig'i baland. Nemislar orqamizdan itlarini yubordi. Itlar bizga yetib olib, tashlandi. To'rtta itni otib tashladik. Lekin ular bizni tishlab, hamma yog'imizni qonga beladi. Bizga yordam bering.

Chol o'rman turib, ularga oq mato va spirt keltirib beradi. Ular yaralarini yuvib bog'laydi.

Chol (*o'ziga o'zi gapiradi*). La'nati fritslar, berahmlar!..

Chol kampiriga imo-ishora qilib, ovqat olib kelishni buyuradi. Kampir ularga non va kolbasa keltirib beradi. Ular o'tirib ovqatlanadi.

Kampir. Yaxshi boringlar. Xudoning panohida bo'linglar. Xayr!

Chol, Sharif, Nikolay, Vasiliy chiqib ketadi.

IV KO'RINISH

Muallif (*chol ularni partizanlar qarorgohiga olib keladi. "Internatsional" partizanlar guruhining boshlig'i Aleksey Dubich kutib oladi.*)

Sharif. Assalomu alaykum.

Aleksey Dubich. Vaalaykum assalom. Kimsizlar, qayerdan keldingiz?

Sharif. Mening ismim Sharif, familiyam Samatov. Biz Voronej tankchilar brigadasining jangchilarimiz, jang paytida asirga tushdik. Avstriyaning konslageri tosh qo'porish karyeridan qochib keldik.

Nikolay. Men Nikolay. Rossiyadanman, o'rtoq komandir!

Vasiliy. Mening ismim Vasiliy, familiyam Kirilov, Xarkovdanman.

Aleksey Dubich. Ha, tushunarli. Tog'lardan, o'rmonlardan oshib keldingizmi?

Sharif Samatov. Xuddi shunday, o'rtoq komandir!

Aleksey Dubich. Men guruh boshlig'i Aleksey Dubich bo'laman (*ularga do'stona qo'l berib chiqadi*). Bizga sizdek jasur jangchilar kerak.

Quadrat. Ha, o'zbekman.

Sharif. Qanday yaxshi o'z oilamni ko'rgandek bo'ldim (*quchoqlashib ko'rishadi*).

Quadrat. Men ham xursandman. Ismingiz nima?

Sharif. Ismim Sharif, samarqandlikman. O'rtoq komandir – Aleksey Dubich bugundan boshlab meni Alessandro deb atay boshladi.

Quadrat. Hamyurtlarimni ko'rganim uchun boshim osmonga yetdi, Alessandro!

Aleksey Dubich. Mana, hamyurtlaringizni ham uchratdingiz. Quadrat bizning guruhda eng yaxshi razvedkachilarimizdan bo'ladi.

Quadrat. O'rtoq komandir, Selino qishlog'idan dushmanning platsdarmi joylashgan hududning xaritasini chizib keldim. Nemislar qarorgohi joylashgan joylarga alohida belgi qo'yganman. Mana, chizma (*chizmani Aleksey Dubichga uzatadi. Komandir chizmani olib qaraydi*).

Aleksey Dubich. Erta nemislar qarorgohini qurshab olishimiz kerak. Razvedkachilarni yuborib, qo'qqisdan hujumga o'tamiz. Erta tongdan harakatni boshlaymiz. Endi, azamatlar, borib, dam olinglar!

Sharif. O'rtoq komandir, ketishga ruxsat eting!

Aleksey Dubich. Ruxsat!

Sharif va Quadrat tashqariga chiqadi.

Ijodiy uchrashuv



AJDODLAR JASORATI – YOSHLARGA O‘RNAK



Tarix – insoniyatning buyuk xotirasi. Unda ajdodlarning ma'naviyati, madaniyati va amalga oshirgan ishlari mujassam. Xalqimizning buyuk farzandlaridan biri, davlat va jamoat arbobi, sarkarda Bahodir Yalangto'shbiy hayoti va faoliyati aks ettirilgan "Bahodir Yalangto'sh" filmi ana shunday jihatlarni o'zida ifodalay olgani bilan ahamiyatlidir.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari qo'mondonligida mazkur film qahramonlari ishtirokida o'tkazilgan ijodiy uchrashuv davomida ham, kinoasar XVII asrda Ashtarxoniyalar davrida yashab o'tgan buyuk sarkarda, ilf-fan homiysi, bugungi kunda Sharq madaniyatining oltin beshigi bo'lgan Samarqand shahridagi dunyoga mashhur Registon maydonining asoschisi, mohir harbiy sarkarda Amir Bahodir Yalangto'shning hayoti, siyosiy faoliyati va

qahramonliklari haqida hikoya qilishini ta'kidlab o'tdilar. Filmida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar – Boir Xolmirzayev, Matyoqub Matchonov, Behzod Muhammadkarimov, Tohir Saidov kabi mahoratli aktyorlar rol ijro etgan. Bahodir Yalangto'sh siymosi sportchi va aktyor Habibullo Nizomov tomonidan gavalantirilgan.

– Ayni damda o'zbek kinosida juda katta islohotlar, yangiliklar amalga oshirilmoqda. "Bahodir Yalangto'sh" filmi ham

Prezidentimiz tashabbusi bilan yaratilgan "Tirik tarix" loyihasi doirasidagi ilk film hisoblanadi. Mazkur loyiha doirasida yana ko'plab tarixiy filmlar tasvirga olinishi rejalashtirilgan. Chunki ajdodlarimiz haqidagi filmlarni yaratib, yoshlarimizga namoyish etsak, ular ota-bobolarimizning kim ekanidan, bizga qanday buyuk tarixiy, madaniy va ma'naviy meros qoldirganidan xabardor bo'ladi. Bugun sarhadlarimiz posbonlari bilan tashkil etilgan uchrashuv davomida ham Bahodir Yalangto'sh kabi

sarkardalarning jang mahorati, ularning yuksak vatanparvarlik tuyg'ulari barchamiz uchun o'rnak ekani alohida ta'kidlab o'tildi, – deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Tohir Saidov.

Filmni tasvirga olish jarayonlari, unda ilgari surilgan ezgu g'oyalar xususida ijodkorlar va harbiylar o'rtasida kechgan fikr-mulohazalar hamda savol-javoblardan so'ng kinoasar namoyishi bo'lib o'tdi.

– Bahodir Yalangto'sh o'z zamonasining tengsiz sarkardalaridan biri.

U yashagan davrda Buxoro va Samarqandda turli muammoli, tang vaziyatlar bo'lgan, ammo yurt sarhadlariga dushman keldi deyilgan vaqtda film qahramoni o'z xalqiga cheksiz muhabbatini namoyon etib, jang maydonining oldingi marralarida dushman

bilan yuzlashadi. Bir so'z bilan aytganda, sadoqat va xiyonat, ezgulik va yovuzlikning mohiyatini ifodalovchi ushbu tarixiy film voqealari tomoshabinni yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashashga, har qanday vaziyatda ham uning tinchligini asrashga doimo shay turishga undaydi, – deydi mayor Dilxushbek Rahmonov.

Albatta, tarixsiz kelajakka qadam bosib bo'lmaydi. "Bahodir Yalangto'sh" kabi filmlar va ular orqali olinadigan ma'lumotlar, xulosalar hamda yuksak faxr va iftixor tuyg'ulari barchamiz, ayniqsa yoshlar uchun kelajakka qo'yiluvchi ishonchli qadamlarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Keling, kitob o'qiymiz!

SOG'INCHDAN

yaratilgan satrlar

Negadir daraxtlarni yaxshi ko'raman. Toshkentga muhabbatim ham daraxtlar tufayli bo'lsa kerak. Chunki bu yerda muazzam daraxtlar ko'p. Ba'zan ularni insonlarga o'xshataman. G'adir-budur tanalarini silasam, ular meni his qilgandek tuyuladi.

"Uyim qarshisidagi ulkan sada sirdoshim, suhbatdoshim bo'ldi. U meni toqat bilan tingladi, sirlarimni sotmadi, g'amlarimni yutdi. Unga sog'inchlarimdan gapirdim, sevinchlarimni aytdim, dardlarimni... Va ruhimda ajib bir yengillikni tuydim". Shularni ayta turib, opaning ma'sum ko'zlarida savol paydo bo'ladi: "Sen meni tushunyapsanmi?" Uni diqqat bilan tinglayotganimni, angliyatganimni ilg'ab, suhbatda davom etadi.

SHU KUNI UZOQ SUHBATLASHDIK. Barchasini bu yerda keltirish imkonsiz. Bir narsa aniq: u bilan suhbat kunimga mazmun, yangi ranglar kiritdi, necha kunlarki qalbimni zilday ezib kelayotgan og'riqlar uning boshdan kechganlari oldida hech narsa emasligini angladim, ruhan yaqinlik tuydim.

"Otam meni o'zim sevish tugul ko'rmaganim, tanimaganim bir odamga uzatdi. Roziligimni so'ragani ham yo'q... Uni ilk kez ko'rib, hushimdan ketdim". Ko'z oldimda atlas ko'ylakli g'oyat go'zal navnihol qiz gavdalanadi (*rasmini ko'rganman*), hatto hozir ham tarovatli, nozik, go'zalligi tark etmagan. Chidolmayman. Dilimdagi tilimga ko'chadi (*ko'p pand yegan bo'lsam-da, bu xatoni takrorlab qo'yaveraman*): "Qanday shafqatsiz ota?!" Chiroyli ko'zlarini pirpirab, mendan xafa bo'lgandek so'radi: "Otamni yomon odam deb o'ylayapsizmi?" Nima deyishni bilmay kalovlanaman. Va u davom etadi: "Otam juda yaxshi odam edi. Urush ko'rgan edi. Undan uch marta "qoraxat" kelgan. Uyga bir qo'lsiz qaytdi. Urush tugadi, ammo otamning urushi davom etdi. To tuproqqa aylanib ketguniga qadar davom etdi. Tanasida o'q parchasi qolgan edi, ba'zan kuchli og'riqlardan o'zini qo'ygani joy topmasdi.

Tirsagidan teparoq kesilgan qo'li bilan qo'ltig'iga ketmon, belkurak qistirib, sahar yo'lga chiqardi. Shu holida qarovsiz, tashlandiq yerlarga ishlov berib, daraxtlar ekardi, bog'lar qilardi. Hovlimiz tugul ko'chalarni ham yog' tushsa, yalagudek qilib, bizga tozalatar edi. Norozi bo'lsak, "Men iflos ko'chalarda yuramiz deb, bir qo'limdan ayrildimmi?!" deya jahllandi.

JUDA MEHNATKASH EDI.

Pilla boqar edik. Bu juda qiyin ish. Shirin uyqungdan voz kechishingga to'g'ri keladi. Otam qatori g'ira-shira tongda tut kesgani borar edim. Bir qo'l bilan tut kesolmas edi. Tutga chiqib, kesib berardim. Bola edim, ba'zan uyqu bosib, tut ustida uxlab qolgan paytlarim bo'lgan. Otamning xavotir aralash jahldor ovozidan o'zimga kelardim.

Juda qattiqqo'l edi. Kitobni shunchaki o'qitmasdi. Mazmun-mohiyatini so'rardi, qo'ling ishda, ko'zlaring kitobda bo'lsin, deb qanday ish qilmaylik yonimizga kitob qo'yib ketar edi. Qattiqqo'lligi izsiz ketmadi, besh opa-singil hammamiz oliy ma'lumotli bo'ldik.

Oriyatli edi. Qishloq ayol-qizlarini ham o'z ahli ayoli kabi qo'rir edi.

Otam yaxshi inson edi!"
"Onangiz-chi?"

"Oq oti bor edi. Otda o'tirganida sochlari ot yolidan ham pastga tushib turar edi. Momom sochlari sarishtali turadi deb, sochpopuk taqib qo'yardi. Brigadir edi. Paxta dalasida samolyot ustidan dori sepib o'tganida zaharlangan edi... Til bilmaganidan "da, net" deganiga o'ris do'xtir uni telbaga chiqargan..."

BULARNI MASHHUR "O'LANIMOOO..." DA SHUNDAY TASVIRLAGAN:

"Samolyotning zaharidan Egatlarni quchoqlagan sho'rlik onam - brigadirlik, Deputatlik sho'ri bo'lib, Belanchagim qucholmagan sho'rlik onam, o'lanimooo!

Cho'loqlarning sanog'i yo'q Biri otam - Kentik qalbin yamog'i yo'q. Qo'ltiqdagi do'ppisidan titrab-titrab,

Minbarlarda o'z tilining salmog'i yo'q,

o'lanimooo!
Onaginam doktorlarning savoliga

Titrab-titrab "da", "net", deydi o'zi bilmay.

O'ris doktor telba, deydi Qirg'kokilli -

Suluv onam so'zlariga parvo qilmay".



Qarang, hamon o'sha suhbat ta'siridaman. Suhbatdoshim kimligini tanishtirmabman. Qariyb qirq yil davomida o'qituvchilik qilgan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Gulbahor Jumayevaning she'rlari turli tillarga tarjima qilingan, Hindiston, Ozarbayjon, Turkiya, Misr, Germaniya davlatlarida nashr etilgan antologiyalarga kiritilgan. "Ruhim ovozi" she'riy to'plami Amerika Qo'shma Shtatlarining "Amazon" nashriyotida ingliz tilida chop etilgan.

"MOMOMGA DEGANLARIM" DA SHUNDAY YOZADI: "O'n to'qqiz yoshimdayoq men o'qishga sirdan kirib malimcha bo'lib qoldim. Meni uzoq qishloq maktabiga o'qituvchi qilib yuborishdi. O'quvchilarim mendan atigi ikki yoshgina kichik edi".

"Men Kitobdan Toshkentga ko'chib keldim. Hayotimda ko'p narsalar o'zgardi. O'zgaragan birgina shevam bor, Kitob shevasi: Qani ketdik, shevam, o'lay o'zingdan,

Dildan so'zlashaylik, ko'zdan panaga.
"To'tta nonimning ham giddi kuyibdi",

"Unnoq-munnoq", dema, urma shonaga.
Shundoq ham bu dunyo kuyuk - masxara,

Kulyapman, ko'zimning yoshini ichib.

"Boddim, kelim, to'llim kunimga yarab,

Faqat sen ketmading bir mendan kechib".

Gulbahor Jumayevaning nasri ham she'riyati kabi ohanraboli.

Buni "Ko'ngil nigohi" ga kiritilgan "Sabrning mukofoti" deb nomlangan "Momomga deganlarim" turkumida ko'rish mumkin. Taniqli adib Luqmon Bo'rixon so'zboshida shunday yozibdi: "Gulbahorning nasriy satrlaridan ham nazmning ifori keladi. U momosiga murojaat tariqasida yozarkan, aslida Vatanga, tug'ilib o'sgan tuproqqa qarab munojot qilayotganini his etamiz".

"MOMOMGA DEGANLARIM" DAN O'QIYMIZ:

"Sen haqingda doston boshlaganimga, ehhe, qancha bo'ldi, hech tugata olmayapman.

Bolasi uch yasharliligida o'lgan, hech kimi yo'q ammam meni "Uch yashar" deb chaqirar edi. Qo'riqchilik qilib, birga uxlaganim uchun shakarli kulcha yopib berardi.

Eh, daryojon, aslida o'sha Kunlarimda buyuk hikmat bor. Ko'zlarimdan "Uch yashar" degan, Ammam ketmayapti, daryojon".

Qanday og'ir satrlar, iztirob to'la misralar. Ayol, Ona bo'lmoqning sinovlari bunchalar og'ir bo'lmasa?!

U BOLALIGI HAQIDA YOZADI: "M o m o m g a deganlarim"ning bir joyida shunday debdi: "Shuyam bolalikmi-ya, momo? Qarg'anganingizday, qirg'inga ketgan bolalik-da bu".

Shu ikki gap zarvarini his qilish uchun ham asar o'qilishga arziydi.

O'qituvchi - mo'jiza yaratadigan kasb! Mehr otlig' tuyg'u tobora noyoblashib

bormoqda. Mehrning javobi ham mehr! "Momomga deganlarim" shunchaki kechinmalar emas, u ijodkorning bolaligi, atrofidagi odamlar, otasi, onasi va hayotida yorug' izlar qoldirgan momosi, maktab, boshqalarga o'xshamaydigan o'quvchilari, jon qadar aziz Oqdaryoga muhabbat qo'shig'idir. Uning Kitob tumanidagi umurtqasida nuqsoni bor bolalar internat-maktabidagi faoliyatining o'ziyoq dunyoning eng go'zal filmi uchun mavzu bo'la oladi.

O'QIYMIZ:

"Tez-tez mazam bo'lmagani uchun dadam "Toshkentda tekshirtirib kelamiz, ishingdan ruxsat ol", dedilar. Buni eshitgan bolalar meni xonaga qulflab qo'yib, bor-yo'qlarini derazadan uzata boshladi. Qulupnay, baliq, xullas, yeguliklar. Qaysilaridir yig'lab qarab turardi... Ovqatni yeb bo'lganimdan so'ng eshikni ochishdi. Avtobusga chiqqanimda hammasi bir-birining qo'lini ushlab, yo'lni to'sib oldi. Hayron edim. "Malimjon, ketmang", deb yig'lay boshlashdi. Nima qilishni bilmayman. "Meni yaxshi ko'rsangiz, yo'l bering", dedim o'zim ham juda mutaassir bo'lib. Shunda mening mehrimdan o'zini qarzdor his qilgan o'sha bola: "Ustoz, o'lmaysiz, a, kelasiz-a, siz rak bo'lmagansiz-a?" deb chiqirib yig'lay boshladi. Qotib qoldim. Yo'lovchilar ham bir menga, bir bolaga qarab yig'lab yubordi. Haydovchi ham ko'zyoshini berkitib boshini rulga qo'yib olgan..."

Ortiq so'z aytishdan tiyilaman. Huzurli mutolaalar tilagi bilan

Inobat IBROHIMOVA,
"Vatanparvar"



Bolaligimda osmon cheksizday tuyulardi. Bag'riga bolaligimni yashirgan cho'lining osmoni tiniq ko'k, kelinchakning moviy shohi ro'moliday ko'rkam bo'lardi. Dashtning keng dalalarida bahor kezlari samoga tikilishni, o'rkach-o'rkach bulutlarni soatlab kuzatishni yaxshi ko'rardim. Onam tabiatan kamgap, serfikir, sermulohaza, oqila ayol edi. Mening osmon haqidagi qiziqishlarim, bolalaracha o'y-xayollarimni eshitib, “osmonning oq shohisi”, “osmonning oq pardasi” haqida hikoyatlar aytib berardi.

Ularning matal qilishicha, qadimda bir onaning to'qqiz o'g'li, bir qizi bo'lgan ekan. O'g'illar ulg'ayib, otasidan qolgan mol-mulk, o'rmonni, suvni bo'lib olibdi. Qobil o'g'illar yurtini bog'-u bo'ston qilibdi, faqat bir nodoni o'rmonga ega chiqib, daraxtlarni kesib, yog'och qilib sotibdi. Nogahon nodon o'g'il yoqqan gulxandan o'rmon yonib, osmonni tutun qoplab, tunda oy, yulduzlar ko'rinmay qolibdi. Yolg'iz qizi Oydiyoy dashtga chiqib, Yaratgandan olovni o'chirishini so'rabdi. Shunda sharros yomg'ir quyib, o'rmonda yana nihollar, dala-dashtda ko'klik unib chiqibdi. Va chaqmoqdan ovoz kelibdi: “Olov osmon bilan yer orasidagi pardani teshibdi...” Oydiyoy qiz shoshapisha sevgilisi tortiq qilgan oq ro'molini shamolga uchiribdi. Shu-shu, qizning ro'moli osmonning oq pardasiga aylanibdi.

Onam aytgan o'sha jo'ngina ertak, “osmonning oq pardasi” haqida hali-hanuz o'ylab yuraman. Rosti, onam menga osmonni anglatganmi, osmon onamni eslatadimi, ang'ay olmayman... Anglagan haqiqatim, osmonning oq pardasi, bugun o'ylasam, odamzodning tiriklik tirgagi, onamning jaydari qilib aytgani ozon qatlami ekan-da... Onam aytgan chaqmoq chaqnaq yana borliq ko'k tusga kirgani meni ko'p o'ylantiradi.

RIVOYATLARDI HAQIQAT BORMI? Fanga ma'lumki, ozon momaqaldir oq bo'lib, chaqmoq chaqnaqda, ultrabinafsha

nurlarning kislorodga ta'siri oqibatida hosil bo'ladi. Sayyoramizning havo qobig'idagi kislorod havosidan doimiy ravishda ozon paydo bo'lib turadi. Atmosferaning yuqori qatlamlari Yerdan 20–40 kilometr balandlikda ozon hosil bo'ladigan tabiiy makon hisoblanadi. Yerning stratosfera qismida ozon eng ko'p to'planadi va ozon qatlamini tashkil qiladi. Olimlarning ta'kidlashicha, atmosferada mavjud bo'lgan ozon miqdori 3 milliard tonnadan iborat bo'lib, u havoning milliondan uch foizini tashkil etar ekan. Afsuski, insoniyat o'tgan asrda osmonni sanoat chiqindilari, is gazi bilan ifloslantirdi. Benzin bilan ishlaydigan avtomobillardan chiqqan gazlar, zavod va fabrikalardan havoga “tashlangan” tutunlar... Oqibatda osmonimizning “oq pardasi” yirtildi, tuynuklar hosil bo'ldi. Natijada Yer yuzidagi hayotni quyosh nuridan “panalab” turuvchi ozon tuynuklaridan oftobning o'tkir ultrabinafsha nurlari tikka yerga tusha boshladi.

Qadimshunos olimlarning yozishicha, hayot davstavval Dunyo okeani suvlarida kislorodsiz muhitda paydo bo'lgan ekan. Yer atmosferasini yorib o'tgan o'tkir ultrabinafsha nurlar uzoq davr mobaynida, taxminan, 2 million yil davomida, quruqlikda hayot rivojlanishiga yo'l bermagan. Ozon taxminan 620 million yil avval paydo bo'lgan, deb aytiladi. Biz bilamizki, borliqda

ozon qatlami vujudga kelgach, insoniyat dunyoga kelgan.

Bugunga kelib o'z tomiga o'zi “tosh” o'tgan odamzod buning oldini olish uchun qayg'uryapti. Chunki hozirda ekologik vaziyat ancha murakkablashib boryapti. Ahamiyat bergan bo'lsangiz, bugun dunyoda odamlar quyosh nurlaridan ko'zining to'r pardasi xiralashishi, ultrabinafsha nurlarning tana terisiga salbiy ta'siri – so'gal va o'smalar paydo bo'lishi, qantomirlarga ta'sir qilishi, immunitet pasayishi kabi xastaliklardan aziyat cheka boshladi.

“OZON TUYNUGI” – ozon qatlamining teshilishiga, ekologlarning ta'kidlashicha, vulqonlarning otilishi ham jiddiy sabab bo'lyapti. Chunki vulqon otilganda tarkibida oltingugurt birikmalari bo'lgan gazlar havoga tarqaladi. Oltingugurt havodagi boshqa gazlar bilan aralashadi va ozon qatlamini yemiruvchi sulfatlarni hosil qiladi.

Yodga oling-a, 1991-yili Pinatubo vulqoni otilishi havoda sulfatlarning keskin oshishiga olib kelgandi. Afsuski, keyingi yarim asrda aviatsiya, kosmik raketalar ham ozon qatlamiga salbiy ta'sir eta boshladi. Tovushdan tez uchadigan samolyotdan azot oksidi otilib chiqadi va stratosfera ozoniga ta'sir etadi. Olimlar 1994-yilning 17-oktabrida Antarktida ustida paydo bo'lgan “ozon tuynugi”ni tasvirga tushirgan edi. Sayyoramizda eng katta “osmon tuynugi” Yerning janubiy va shimoliy qutblarida qayd etilgan.

Ma'lum bo'lishicha, sayyoramizning shimoliy yarim shari ustida oxirgi 30 yil ichida ozon konsentratsiyasi 3-5 foizga pasaygan. Shuningdek, Yerning janubiy yarim sharida ozon qatlamining siyraklashishi ekvator zonasida ham kuzatilgan. Ilmiy hisob-kitoblarga qaraganda, Yer yuzida yongan mahsulotlarning atmosferaga tashlanishi oqibatida 1 500 tonnadan ortiq ozon yo'qolishiga olib keladi. Osmonning oq pardasi odamzodning hayotini muhofazalaydigan ne'matdir. Chunki ozon qatlami quyoshdan kelayotgan infraqizil nurlarning bir qismini yutib, tiriklik uchun kerakli miqdordagi qulay haroratni saqlab turadi.

BIR QARASHDA “ozon tuynuk”lari dunyoda bugun ro'y berayotgan terrorizm, xunrezliklar, tabiiy ofatlar, daryolarga uzoqni o'ylamay, o'zboshimchalik bilan to'g'on solishlar oldida “biroz yumshoq” hodisadaya tuyulishi mumkin. Ammo... so'nggi vaqtlarda jahon tibbiyoti “odamda immunitet tanqislikning oldini olish” kerak, deya jar solyapti. “Ozon tuynuk”lari esa tirik mavjudotlarda immunitet pasayishiga va uning tanqisligiga olib kelishini olimlar ta'kidlamoqda. Shunisi qiziqi, inson o'z sog'lig'i ildiziga o'zi “bolta”

urib, hosil qilgan “ozon yemirilishi”ga loqaydgina munosabatda bo'ladi. Ortiqcha ultrabinafsha nurlanish mintaqasida joylashgan hududlarda, ayniqsa yoz faslida nurlanishning salbiy ta'siri kuchayadi. Vaholanki, o'tkir quyosh nurlari ko'z gavharini xiralashtiradi, katarakta xastaligini keltirib chiqaradi. Ozon qatlamining yemirilishi teriga, DNK tuzilishiga salbiy ta'sir etadi, turli teri xastaliklarini keltirib chiqaradi. Agar havoda mavjud ozon qatlami 10 foizga kamaysa, ushbu kasallanish ko'rsatkichi 26 foizga ortadi.

Odatda, biz ekologik muammolarning sababini uzoqdan axtaramiz. Havo atrof-muhitning ifloslanishi, suvning bug'lanishiga olib keladigan hodisalarni ko'rib, bunday holatga loqaydmiz. Ba'zan biz, shaharliklar maishiy chiqindilar orasiga iste'molga yaroqsiz bo'lib qolgan lampochkalarni qo'shib tashlab yuboraveramiz. Vaholanki, lampochkalar singanda atrof-muhit, havoni zaharlashini, ozon qatlamini yemiradigan gazlarga aylanishini bilsak-da, baribir tashlayveramiz.

Mana, bahor fasli eshik qoqib turibdi. Hademay kunlar isib, aholi yashash joylari, maktab, bog'cha, tashkilot, idora, jamoat joylarida obodonchilik ishlari saranjomlay boshlanadi, maishiy chiqindi, shox-shabba, barglarini to'plab orastalik o'rnatiladi. Ba'zilar, ayniqsa xonadonlaridan chiqqan yaproqlarni yoqib yuboradi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, bir tonna xazon yonganda atmosfera havosiga 30 kilogramm uglerod oksidi tashlanadi. Yoki bitum yoqilganda undan ajralib chiqqan qurum inson organizmida sil va saraton kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Qishloqqa borganimda ko'p kuzatganman. Odamlar yoz oylarida panapastqam, past-baland joylarda qovjirab qolgan o't-o'lanni, hosildan bo'shagan maydonlardagi poyalarni yoqib yuboradi. So'rasangiz: “Kim biladi, odamlar aytadiki, yoqilsa, yerosti va ustidagi hasharotlar yo'qolib, yanagi yili hosil mo'l bo'larmish...” deydi mujmal qilib. Aslida-chi, hisob-kitoblarga qaraganda, 1 gektar maydonda don poyasi yoki boshqa chiqindi yonganda atmosfera havosiga 500 gramm azot oksidi, 379 gramm uglevodorod, 3 kilogramm kul, 20 kilogramm is gazi va uglerod oksidi (SO) gazi tashlanadi. Oqibatda odamlar aytganiday, ertaga shu maydondan mo'l hosil olish o'rniga tuproq strukturasi buzilib, eroziya kuchayadi...

Bilmadim, taraqqiyotmi, sershovqin shaharda yashab, diydami qotib ketyaptimi, har holda ko'p narsaga e'tibor bermaymiz. Biz, shaharliklar, sof havonaqadar zarurligini bilamiz, hammasini tushunamiz, ammo loqaydligimiz bor-da... Bir chekkasi “ozon qatlamini” asrash uchun katta-katta ishlar qilish kerak, deb yana o'zimizni oqlab, yupatib ham qo'yamiz. Osmonni siz va biz, hammamiz asraymiz. Yo'qsa, bir kun kelib osmon ham odamzodni “o'z hukmiga solishi” mumkin emasmi!

Yaqinda bolalikni izlabmi, qo'msabmi, Mirzacho'lga bordim. Ota uyim ustidagi bir parcha osmonga uzoq-uzoq tikildim. Nazarimda, u biroz munkayib qolganday, boshimga soyabonday... Osmon yuzidan nigohlarimning izini topgandayman... Qo'llarim beixtiyor boshim uzra sirpanadi, sochlarimda sirg'anadi. O'ylab qolaman, “Oh qaniydi, Oydin qizning oq shohi ro'moli bo'lsa-yu, osmonning yuziga oppoq harir parda qilib tortib qo'ysam...”

Huquqiy targ'ibot

Korrupsiyaga qarshi kurashishda shaxslar ongida shakllangan axloqiy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ya'ni halollik va to'g'rilik, adolat va tenglik kabi tamoyillar shaxslarni o'zaro munosabatlarda turli haqsizliklardan himoya qiladi. Zero rivojlangan korrupsiyasiz jamiyatni ma'nau yetuk va korrupsiyaga qarshi qarashga ega fuqarolar yordamidagina barpo etish mumkin. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat huquqiy majburiyat, balki ma'naviy burch ham hisoblanmog'i lozim. Shu ma'noda fuqarolarning korrupsiyaga qarshi ongi ularning faol fuqarolik pozitsiyasining ajralmas qismi hamdir.

Ko'pgina manbalarda fuqaroviylilik bir davlatga mansublikni anglash, davlatga sodiqlik hamda vatanparvarlik hissi sifatida talqin etiladi. Bunda davlatni, Konstitutsiyani, davlat ramzlarini hurmat qilish, davlat tuzumini va qonun ustuvorligini himoya qilishga tayyorlik nazarda tutiladi. Fuqaroviylikni insonga huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan layoqatli ekanini his etishni ta'minlovchi, jamiyatdagi jinoyatchilik holatlariga qarshi tura olish qobiliyatlarini jamlovchi tushuncha sifatida ham talqin etish mumkin. Shu bilan barga, "Fuqaroviylilik bir tarafdin jamiyatda shaxsning

KORRUPSIYAGA QARSHI

KURASHISHNING MA'NAVY-AXLOQIY JIHATLARI

oliy darajada mustaqilligini, ikkinchi tarafdin esa kishilarning jamiyat hayotidagi ishtirokida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi birdamlikni nazarda tutuvchi qarashlar majmuini ifoda etadi".

Fuqaroning o'z haq-huquqlarini tushunishi va uni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi, boshqa fuqarolarning haq-huquqlarini hurmat qilish, fuqaroning o'z xatti-harakati uchun shaxsiy javobgarligi, davlat va jamiyat oldida o'zining huquqiy va axloqiy mas'uliyatini anglash, fuqarolarning tengligi, yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda ijtimoiy voqelikka nisbatan xolisona va tanqidiy yondashuv, hokimiyat bilan, boshqa fuqarolar va jamoat birlashmalari bilan ijobiy muloqot yuritish qobiliyati, bir mamlakat, jamiyat va davlatga, shuningdek unga tegishli huquqiy, madaniy va til makoniga mansublikda ifodalangan fuqaroviy o'zlikni anglash fuqaroviyligini ifoda etuvchi muhim jihatlari qatoriga kiradi.

Fuqaroviylikning tugal yoki to'kis ekanini quyidagi mezonlar vositasida talqin qilish mumkin. Agar fuqaroviy pozitsiya hali shakllanmagan, fuqaroviy xususiyatlar, o'z haq-huquqlari uchun kurashish istagi to'liq namoyon bo'lmasa, fuqaroviylikning eng quyi darajasi namoyon bo'ladi. Fuqaro o'z haq-huquqlari uchun kurashishga moyil bo'lsa, u haqda o'z bilim va qobiliyatini namoyon qilishga tayyor bo'lsa, bunda fuqaroviylikning o'rta darajasi namoyon bo'ladi. Agar fuqaroda fuqaroviy xususiyatlar hamda faol fuqarolik

pozitsiyasi to'liq shakllangan, o'z haq-huquqlari uchun amaliy harakatga kirish ishtiyoqi yaqqol namoyon bo'ladigan bo'lsa uni yuqori darajada fuqaroviylilik sifatida talqin etish mumkin.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, korrupsiyaga qarshi kurashni faqatgina davlat hokimiyati organlari, jumladan faqat huquqni muhofaza qiluvchi idoralar zimmasiga yuklab qo'yish korrupsiya ko'laminin qisqarishiga emas, aksincha kengayishiga olib kelgan. Chunki ushbu idoralarning korrupsiyani bartaraf etish bilan bog'liq faoliyatida muayyan muddatda ijobiy natijalarning sezilmasligi aholi orasida huquqiy nigilizmni keltirib chiqarish ehtimoli yuqori. Binobarin, bunday holat jamoatchilikni davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashib, uni yengolmayotgan ekan, demak, buni bartaraf qilib bo'lmaydi, degan xulosaga olib keladi. Korrupsiyaga qarshi kurash befoya, degan kayfiyatning hukm surishi esa aholining muayyan qismida korrupsiyaga qarshi kurashish emas, unga moslashish kerak, degan xulosani keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakatimizda jamiyatdagi muammolarga yechim topishda jamoatchilik nazoratiga tayanish lozimligiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zero korrupsiyaga qarshi kurash olib boruvchi subyektlar tizimida jamoatchilik nazorati subyektlari ham muhim o'rin tutadi. Mazkur institut jamiyatda yuz berayotgan korrupsiya holatini aniqlashda

katta imkoniyatlarga ega. Bu bir jihatdan jamoatchilik nazorati jarayonida keng ommaning ishtiroki bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, aniqlangan korrupsiya holatlarini yuqori davlat organlariga yetkazish orqali bunday salbiy hodisani cheklash imkoniyati bilan bog'liq.

Jamoatchilik nazorati, bir tomondan, korrupsiya holatlarini aniqlab, unga davlat hokimiyati organlari e'tiborini qaratsa, ikkinchi tomondan, korrupsiyaga nisbatan keng aholi orasida salbiy munosabatni shakllantirish orqali ham olib borilayotgan kurash samaradorligining ortishiga hissa qo'shadi.

Bir qator mamlakatlar tajribasiga ko'ra, korrupsiyaga qarshi kurashishda yuqori sifatli huquqiy me'yorlarning ishlab chiqilishi bunday salbiy hodisani bartaraf etish tugul kamaytirishga ham ta'sir qilolmas ekan. Korrupsiyani cheklash va minimal darajaga tushirish uchun, bir tomondan, siyosiy iroda talab etilsa, ikkinchi tomondan, bu kurashga jamoatchilikni jalb etish, ya'ni jamoatchilik nazoratini kuchaytirishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat a'zolari o'rtasida korrupsiyaga nisbatan faol murosasizlik kayfiyatini shakllantirishni ham taqozo etadi.

Muzaffar AKRAMOV,
Mudofaa vazirligi
korrupsiyaga qarshi
ichki nazorat bo'limi
bosh mutaxassisi

Mehnat yarmarkasi

Ijtimoiy himoya — ustuvor vazifa

Xotin-qizlar va yoshlar bandligini ta'minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu borada Harbiy prokuratura organlari tomonidan amaliy tadbirlar izchil o'tkazib kelinmoqda.

Markaziy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazida tashkil etilgan bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi ham shular jumlasidan. Unda Samarqand viloyatidagi 49 dan ortiq korxonalar, tashkilot va muassasa 300 ga yaqin bo'sh ish o'ri bilan ishtirok etdi. Jarayonda harbiy xizmatchilarning oila a'zolaridan 14 nafariga yo'llanma berildi.

Shuningdek, bir paytda tashkil etilgan ommaviy sayyor qabul ham ishtirokchilar uchun ayni muddao bo'ldi. Tegishli soha mutaxassislari jalb etilgan holda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari tinglandi.

Jami 19 ta murojaatdan 4 tasi joyida ijobiy hal etilgan bo'lsa, 15 tasiga huquqiy tushuntirish berildi.

Adliya kapitani Azamat GULAMOV,
Samarqand harbiy prokurorining
katta yordamchisi

Sayyor qabul

Murojaatlar yechim topmoqda

Toshkent viloyatidagi harbiy qismlarning birida xizmat o'tayotgan harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun sayyor qabul tashkil etildi.

Unda dastlab Qurolli Kuchlar tizimidagi islohotlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolariga yaratilgan sharoitlar, hamkorlikda amalga oshirilayotgan tadbirlarga to'xtalib o'tildi.

Shuningdek, "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi hamda yangi qabul qilingan qonunlar mazmun-mohiyati tushuntirib o'tildi.

Sayyor qabulda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy muammolari va boshqa sohadagi murojaatlari o'rganildi. So'ngra asosiy e'tibor ishtirokchilardan kelib tushgan murojaatlarni joyida ijobiy hal etishga qaratildi.

Adliya mayori Otobek MENGLIYEV,
Toshkent harbiy prokurorining
yordamchisi

O'quv-seminar

Amaliy tadbirlar

Chirchiq harbiy prokuraturasi tomonidan Toshkent viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasining tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirishga vakolatli mansabdor shaxslari bilan o'quv-seminar o'tkazildi. Bu yo'nalishga doir protsessual talablar bo'yicha fikr-mulohazalar almashildi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini ish bilan ta'minlash maqsadida harbiy qismlarning birida mehnat yarmarkasi o'tkazildi. Unda 10 ga yaqin korxonalar va tashkilot o'zining bo'sh ish o'rinlari bilan ishtirok etdi. Jarayonda harbiylarning ish bilan band bo'lmagan oila a'zolariga korxonalar va tashkilotlarning vakant lavozimlari taklif etildi.

Bundan tashqari, harbiy qismlarning birida "Huquqbuzarlik bizga yot" mavzusida targ'ibot-profilaktika tadbiri o'tkazildi. Muloqotda huquqbuzarliklarga qarshi kurashish faoliyati, bu borada olib borilayotgan ishlar, jinoyat tushunchasi va tasnifi, javobgarlik masalalari hamda ularning huquqiy asoslari haqida so'z yuritildi.

Yakunda ishtirokchilarning savollari yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berildi.

Adliya kapitani Shoilhom SHOAKBAROV,
Chirchiq harbiy prokurorining o'rinbosari

Voqeyiy hikoya

HOKIMIM



- Xullas, Xolmatjon, mana shu uyda vaqtincha turishlaring mumkin, - mahalla raisi Begmat aka egnini qisib turgan o'ttiz besh yoshlardagi yigitga astoydil tushuntirdi. - Bu hovlida avval xudo rahmati Mamat ota yashagan, bir yildan buyon bo'sh turibdi. Bilishimcha, otaning hech kimi yo'q edi, umri hovliga qo'shni bo'lgan mana bu masjidida o'tgan. Masjidning hovli-yu tomorqasiga qarab turardi. Bu yerning avval masjidga tegishli bo'lganini aniqladik, ammo buni tasdiqlaydigan hujjat yo'q. Sening xotining, bolang bilan ijarada qiynalib yurganingni eshitib, uy-joyli bo'lguningga qadar shu hovlini berishga qaror qildik.

- Rahmat, rais aka, umringizdan baraka toping, - hayajonlangan ko'yi halqumiga tiqilayotgan yoshni qaytarishga harakat qildi yigit. - Ijara puli qimmat bo'lgani uchun ochin-to'qin eplab kun kechirayotgandik. Men-ku, mayli, bolam bilan xotinim...

- Hammasi yaxshi bo'ladi, - yigitning yelkasiga qoqib qo'ydiki Begmat aka. - Kunlik ishga chiqib, pul topishingni bilaman. Eshitishimcha, qo'lingdan ko'p ish kelar ekan, shundaymi?

- Haa, oz-moz ustachilik, uy ta'mirlash, tomorqa ishlari degandek...

- Juda yaxshi, to'rt sotixga yaqin hovlining, ko'rib turganingdek, tomorqasi bor. Oshovqat, tirikchilik uchun u-bu narsa eksalaring, tovuq boqsalaring bo'ladi. Vaqti-soati bilan mol-qo'y degandek tuyoq qilarsizlar. Bu yog'i endi kelin bilan sening qo'lingda. Hali yana gaplashamiz, balki, senga maoshi barqaror biror ish topilib qolar...

Xolmat bilan xotinini Qurbongul ko'tarinki kayfiyatda qarovsiz

hovlini tozalashga kirishib ketdi. Dastlab darvozadan kiraverishdagi ikki xona uyning to'kilgan joylari shuvab oqlandi. Pol, shift, elektr muammolari yigitning qo'li bilan joyiga keldi. Yog'ochlari ko'chib qiyshayib yotgan taxta darvoza to'g'rilandi. Hovli sahni tartibga keltirildi. Kambag'alni ko'chganda ko'r, deganlaridek, Qurbongul bir etak narsalarini astoydil joylay boshladi. Xolmat tomorqani chopishga kirishdi. Erxotinning tinimsiz mehnati, sa'y-harakati bilan bir hafta deganda yengil ta'mirdan o'ziga kelgan uy nochoagina oilani mehr bilan bag'riga oldi.

- Dadasi, ertaga ishga chiqmasangiz bo'lmaydi shekilli, bir kunlik oziq-ovqat qoldi, - kechga tomon dasturxon ustida eriga yuzlandi Qurbongul. - Qolgan ishlarni o'zim eplayman. Tomorqaga u-bu narsa ekish uchun ham pul kerak.

- Ha, menam shuni mo'ljalab turibman. Ammo darvozaxona tashqarisini tartibga keltirish, uyning orqa tomonini ham ozmoz ta'mirlab, oqlash kerak. Masjid biqinidagi hovli ekan, u yerga ko'pchilik kelib-ketadi. Bo'lmasa, ishdan ertaroq qaytgan kunlarim shu ishlarni qilaman.

- Men ertaga tashqarini tozalayman. Daraxtlarni butab, tagini chopish qo'limdan keladi, keyin gul ekaman. Siz bemalol ishga chiqavering.

- Yaxshi, lekin sen avvalo o'g'limizga yaxshi qara. Keyin bu hovliga ortiqcha mehr qo'yib yuborma, mahalla raisi "vaqtincha o'tirib turasizlar" degan gapni ikki-uch bor takrorladi.

- U nima deganingiz, endi egasiz hovli bo'lsa, ijara puli to'lamay o'tirganimizdan keyin mehr berish kerak-da.

- Bu yerga kelganimizdan buyon yanayam chaqqon bo'lib ketding-da, shunga aytyapman. Keyin egasiz hovlining o'zi bo'lmaydi, ayniqsa katta shaharda. Qachondir, kimdir uyga haqdor bo'lib chiqishi hech gap emas.

- To'g'ri aytasiz, lekin kelganimizdan buyon bu joyni xuddi o'zimning uyimdek yaxshi ko'ryapman. Ko'p joylarga ko'chdik, kamsitildik, ezildik, bu yerda bemalolmiz, balki, shungadir...

Ikki yorti bir butun, deganlaridek, ota-onadan erta yetim qolgan Xolmat va o'gay ona zaxmini tortgan Qurbongul o'zlariniki bo'lmasa-da, beminnat hovlida bamaylixotir kun kechira boshladi. Bag'riga shamol tekkan ikki yosh bir zum bo'lsada tinmasdi. Xolmat pul topish uchun tong sahardan kunlik ishga chiqsa, xotini bolasi va uy yumushlaridan ortib, tomorqa ishlarni bajarishga kirishardi. Hovli ichi va tashqarisida ko'p o'tmay, gullar barq urib, poliz ekinlari-yu turli-tuman ko'katlar bo'y ko'rsatdi. Tomorqa chetiga qurilgan katakda tovuqlar tuxum bera boshladi.

- Dadasi, bugun mahalla raisi keldi, - ishdan qaytgan eri oldiga dasturxon yozar ekan, mamnun holda gapira ketdi Qurbongul. - Ko'chib kelganlaringga uch oy bo'lmasdan shuncha ish qilibsizlar, qoyil, deb maqtab qo'ydi.

- Begmat aka yaxshi odam, tunov kuni ko'chada ko'rib qolgandim, "Yaxshi joylashib oldilaringmi, sizlarni hech kim bezovta qilmayaptimi? Senga maoshlik ish surishtirib yuribman, qo'lingda biror hujjating bormi?" deb so'radi. Maktabni bitirganimizdan keyin sharoit sabab

mardikorlikka chiqib ketganimni aytdim.

- Mendan ham so'radi, "Qo'lingizdan chevarchilik kelsa, tikuv mashinasi olib berishimiz mumkin", dedi. Oylik tikuvchilik kursida o'qisam, mahalla tomonidan yordam berilar ekan.

- Qurbongul, bag'rimizga shamol tekkan ro'st bo'lsin, ilohim...

- Kim boor, hovlida biror zog' bormii?!

- Hozir, hozir...

Qurbongul oyoq kiyimini shoshilib kiyib chiqqunga qadar qirq besh yoshlardagi qora ko'zoynak taqqan basavlat erkak hovli o'rtasida turib, atrofni sinchiklab kuzata boshladi.

- Keling, mehmon, - iymaniy bina uni qarshi oldi juvon.

- Darvoza ochiq ekan, javob bo'lavermagach, ichkariga kiraverdim, - hovli tomorqasiga ko'z yugurtirib turgan erkak xonadon bekasiga nopisand nazar tashladi. - Eringiz uyda yo'qmi?

- Ishga chiqib ketgandi.

- Hovliga qachon ko'chib keldilaring, bu joyni sizlarga kim tavsiya qildi? - qovoqlarini uyib so'radi u.

- Erim kelsa, o'zidan so'raysiz, - pason kiyingan kalondimog' mehmonga javob berishni istamadi ayol. Shu asnoda erini ishga kuzatgach, o'g'ilchasi yig'lab qolgani uchun darvoza eshigini ichkaridan berkitmagani yodiga tushib, o'zini koyidi. "Birovning uyiga ruxsatsiz kirib kelishga uyalmaydimi bu odam?" xayolidan o'tkazdi u. Ammo xokisor juvon unga e'tiroz bildirishga o'zida kuch topa olmadi.

- Mayli, unday bo'lsa, kechga tomon eringiz ishdan qaytganida kelaman.

Erkak viqor bilan chiqib ketdi. Uning yaxshi niyatda kelmaganini anglab turgan Qurbongul hovlidan ayrilib qolayotgandek ortidan bir muddat tik qotganicha qoldi. Yashash uchun joy izlab

ko'chama-ko'cha sarsonlikda yurgan kunlari yodiga tushdi, ko'ksiga muz kirgandek bo'ldi. "Erimga telefon qilib aytammikan, yo'q, bo'lmaydi, ishlayotgan bo'lsa, shashti pasayadi. Yaxshisi, kelganida aytganim ma'qul..."

Xolmatning ishdan qaytishiga kibrli olifta erkak sherigi bilan hozir-u nozir bo'ldi.

- Uka, qo'lingda uyning hujjati yo'qligini bilaman, chunki bu joy menga tegishli. Shuning uchun bu yerdan ko'chishingga to'g'ri keladi! - buyruq ohangida Xolmatga fikrini yetkazdi erkak. - Meni Nusratboy deydilar, men bitta gapiraman va aytganimni qilaman! Senga hovlini bo'shatishing uchun bir hafta muhlat!

- To'g'ri, hovli bizniki emas, lekin mahalla raisi Begmat aka mendan so'ramasdan bu yerdan ketmanglar, degan, - bo'shashib javob qaytardi Xolmat.

- Mahalla raisi o'rtaga tushadimi, boshqasimi, bir haftadan keyin bu yerda qoralaringni ko'rmay!

- Shunday degin, o'g'lim, - rangi aftoda Xolmatga tasalli berdi Begmat aka. - Sen siqilma, bu hovlida Nusratboy degan odamning haqqi yo'qligini aniq bilaman. Yaxshisi, sen ertaga...

Xolmat mahalla raisining maslahati bilan tong sahar shahardagi tuman hokimiyatiga yo'l oldi. "Hokim uning dardini eshitarmikan, avvalo uning oldiga kambag'al oddiy mardikorni qo'yisharmikan? - yuragi qaltiradi yigitning. - Nima bo'lgandayam chiqmagan jondan umid. Ko'chada qolgandan ko'ra harakat qilgan ma'qul". Xolmat hokimning qachon kelishi noma'lumligini bilsa-da, uning eshigi oldidagi o'rindiqa boshini egganicha uzoq o'tirdi. Bir yigit ikki-uch bor kelib: "Nima, sizning qiladigan ishingiz yo'qmi, balki, hokim boshqa ishlaridan ortib bugun kelmas", deb e'tiroz bildirib ketdi. Xolmat joyidan qo'zg'almadi.

- Uka, hokimda ishingiz bormi?

Xolmat yoniga kelib o'tirgan bo'ychangina erkakni sezmay qolganidan xijolat chekib:

- Ha, zarur ishim bor edi, - dedi ma'yuslik bilan. - Lekin hokim hali kelgani yo'q, kotibasi bor. Siz mendan keyin kirasizda, aka, uch soatdan buyon o'tiribman.

- Shunday deng, albatta sizdan keyin kiraman. Nima ish bilan kelgandingiz o'zi?

Xolmat mehnatkash, biroq gapga no'noq bo'lishiga qaramay, samimiy suhbatdoshiga to'lib turgan yuragini yordi, dardini to'kib soldi. Ikkovlon bir muddat qadrdonlardek dardlashdi. Shunda oldilaridan qo'lida qog'ozlar ko'tarib olgan bir ayol hokim xonasiga yaqinlashdi. Ichkarida kotiba qizdan hokim yo'qligini bildi chog'i ortiga qaytdi va kutilmaganda, "Azamat Xoldorovich, shu yerdamisiz, ko'rmasdan o'tib ketganimni qarang", dedi xijolatlik bilan. Xolmat qotganicha qoldi. U hokim bilan sirlashganidan bexabar edi.

Ko'p o'tmay, Xolmat bilan Qurbongul o'zlari mehr qo'ygan hovlining hujjatiga ega bo'ldi...

Zulfiya YUNUSOVA,
"Vatanparvar"

TANQIDNI TO'G'RI QABUL QILA OLASIZMI?

Atrofdagilar bilan kurashgan odam ojizdir.

O'zi bilan kurashib, hamisha g'olib bo'lganlar esa eng kuchlidir.

Tanqidiy fikrlash va tanqidga to'g'ri yondashuv

Inson o'z fikriga bildirilgan tanqidni shaxsiyatiga tegishli deb qabul qilsa, adashgan bo'ladi. Tanqidni biror bir xatti-harakat yoki fikrga nisbatanligini anglaganlar esa sekin-asta o'z kamchiliklarini bartaraf etib, komillik darajasiga yetadi. Zero tanqid insonning o'sishiga, ma'nani kamol topishiga xizmat qiladi.

Tanqidiy fikrlash – fikrlashning alohida turi bo'lib, u faktlarni tahlil qilish orqali xulosalar hosil qiladi. Ushbu konsepsiya murakkab va turli xil ta'riflarga ega. Masalan, ratsionallik, skeptitsizm, xolis tahlil va faktlarni tekshirish shular jumlasidan. Umuman olganda, tanqidiy fikrlash bu o'z-o'zini boshqaradigan, o'zini o'zi tarbiyalaydigan, nazorat qiladigan va to'g'rilaydigan fikrlash shaklidir. Uning zarur sharti ongni takomillashirishning qat'iy me'yorlariga rozi bo'lish va bu me'yorlarni hayotda hushyorlik bilan qo'llashdir.

Tanqidiy fikrlash insondan samarali muhoqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini egallashni, shuningdek tabiatimizga xos egosentrizm va sotsosentrizmni yengib o'tishni talab qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, tanqidning inson xarakteridagi nuqsonlarga, fikr yoki g'oyaga, bajarilgan ishga nisbatan ko'rinishlari mavjud. Shu o'rinda bir misol keltirib o'tsak. Aytaylik, kimdir sizni uyqungizda xurraq otishingiz yoki tishingizni g'ichirlatishingiz haqida tanqid qildi, ya'ni ogohlantirdi. Bu vaziyatda ko'pchilikning javobi "Yo'g'-e, bo'lishi mumkin emas", ko'rinishda bo'ladi. Ayrimlarning mazkur ogohlantirishdan jahli chiqishi ham tabiiy. Aslida esa siz atrofdagilarga noqulaylik tug'dirmasligingiz uchun tanqidni to'g'ri qabul qilishingiz va o'zingizdagi nuqsonlarni bartaraf etishga harakat qilishingiz lozim. Masalan, bunday holatda, ya'ni boshqalar bilan bir xonada yotishdan oldin, hech bo'lmaganda noqulaylik uchun ulardan uzr so'rab qo'ying. Chunki oldindan bildirilgan uzr sizni xijolatli vaziyatdan qutqaradi. Yodingizda bo'lsin, insonning shaxsiy nuqsoni faqatgina uning o'zigagina tegishli va u ko'pincha atrofdagilarga noqulaylik tug'dirishi bilan ajralib turadi.

"Sizga otilgan tanqid toshlarini albatta terib oling. Chunki ular kelajakda erishadigan yutuqlaringiz cho'qqisining poydevori bo'ladi". XIX asrda yashab o'tgan fransuz kompozitori Gektor Berliozga tegishli ushbu faylasufona g'oyaga amal qilib yashaydigan

insonlarning yutuqlari aynan tanqidiy fikrlashning intellektual mevasidir. Ishonmasangiz, buni o'zingizda sinab ko'ring. Albatta, natijasi siz kutgandan ham a'lo bo'lishiga ishonch hosil qilasiz.

Etimologiyasi va kelib chiqishi

Tanqidiy fikrlash atamasi Xalqaro terminologiya tizimida (*grekcha*) fikrlashning "tanqidiy" shakli sifatida yuritiladi. Kritikos "tanqid", "baholash", "imtihon" va boshqalar. Ko'p ma'noli so'zdan kelib chiqqan. Bu yerda "tanqid" tushunchasi kundalik hayotda "ayblash" ma'nosini anglatmaydi, balki aqliy qobiliyat ma'nosini bildiradi va "baholash", "aniqlash", "hukm qilish", "ajratish qobiliyati" kabi ma'nolarga ega. Tanqidiy fikrlashning intellektual asoslari, shuningdek etimologiyasi ham juda qadim zamonlarga borib taqaladi, ya'ni bundan 2500 yil avval Suqrotning o'qitish amaliyoti va fikrlarida bu tushunchaga yaqin mazmuni uchratish mumkin. Suqrot savollarni tekshirishning yangi usulini ixtiro qildi. Bu odamlarning bilimiga bo'lgan ishonchini oqilona aniqlashga qodir emasligining zaifligini ko'rsatdi va bunda Suqrotga xos kinoya ham bor edi.

Suqrotning tanqidiy haqiqatni aniqlab berishicha, inson bilim va aqlga "hokimiyat" (*obro'*) asosida bog'liq bo'lmaydi. U o'z qarashlari orqali hokimiyat va yuqori lavozim egalari juda sarosimali va mantiqsiz bo'lishi mumkinligini isbotladi. Suqrotning fikricha, yaxshi hayot kechirish va hayotning qadriga yetish uchun inson tanqidiy savol beruvchi, "surishtiruvchi ruh"ga ega bo'lishi kerak. U g'oyalarni e'tiqodga loyiq deb qabul qilishdan oldin, uni chuqur o'ylashga undaydigan chuqur savollar berish kerakligini angladi. Dalil izlash, hukm va taxminlarni sinchiklab tekshirish, asosiy tushunchalarni tahlil qilish, nafaqat aytilgan, balki amalga oshirilayotgan ishning mohiyatiga ham kirib borish muhimligini tushundi. Uning so'roq qilish usuli hozirda "Suqrotcha so'roq" deb nomlanadi va u tanqidiy fikrlashni o'rgatishning mashhur strategiyasi hisoblanadi.

Yo'nalishlari

Fikr yoki g'oyaga, bajarilgan ishlarga qaratilgan tanqidchilik-chi? Buni qanday tushunish mumkin? Nima uchun ular globalligi bilan ajralib turadi va ularga nisbatan tanqidiy qarashlarning sohaga oid yo'nalishlari shakllangan? Bugungi kunda adabiyot, kino,

san'at, siyosat, tarix tanqidchiligi haqida eshitmagan inson bo'lmasa kerak. Bu sohalar erishgan yutuqlarning barchasi tanqidchilikning mevasi, desak, adashmagan bo'lamiz. Tanqidiy fikrlashning yettita tanqidiy xususiyati mavjud: izlanuvchan va ishtiyoqli, har xillarga ochiq, tizimli fikrlashga qodir, analitik, haqiqatan qat'iyatli, tanqidiy fikrlashda ishonchli va yetuk.

TANQIDIY FIKRLASH bir necha yo'llar bilan belgilanishi mumkin bo'lsa-da, uning asosiy tarkibiy qismi – qoniqarli natijaga erishish uchun kuchli intilish haqida umumiy fikr mavjud bo'lishi kerak. Bunga oqilona fikrlash va natijaga

asoslangan yondashuv orqaligina erishiladi. Tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Bu fikrlash jarayonida ishtirok etish tendensiyasini o'z ichiga oladi.

Shaxsiy qarashlarim

Mazkur maqolani yozishda soha mutaxassislarining qarashlarini o'rganar ekanman, tanqidchilikning yana bir yo'nalishi borligiga ishonch hosil qildim. Bu – motivatsiya beruvchi, ya'ni ilhomlantiruvchi tanqidchilik. Motivatsion tanqidchilik qanday bo'lishi mumkin? Siz unda ma'lum bir insonni to'g'ridan to'g'ri tanqid qilmaysiz. Uning xatodan iborat xatti-harakatini ilhomlantirish orqali xatosiz bajarishini ta'minlaysiz. "Hozirgi bajaragan ishing yomon emas. Kel, buni ikkalamiz yanada yaxshiroq bajarib ko'ramiz". Aynan mana shu murojaat orqali uning xatosini ijobiy tomonga o'zgartirish kafolati yuqori bo'ladi. Bunday holatga ko'p



maqomini beryapmiz. Shuning uchun bu sohalar keyingi yillarda rivojlanishdan ko'ra, tanazzulga yuz tutgan. TVdagi ko'rsatuvlar-chi? Ularda ham shu holat.

Adabiy tanqidchilik borasida yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha sifatida yana shuni ta'kidlab o'tmoqchiman. Tajribadan ma'lumki, ko'plab ijod namunalari, shoh asarlarining dunyoga kelishi adabiy tanqidchilikning mevasi emas. Ammo o'sha asarning dunyoga tanilishida, muxlislarini topishida tanqidchining roli juda katta. Tushunarli qilib vaziyatga izoh bersak, tanqidchi asarni va uning muallifini keng jamoatchilikka "reklama" qiladi. Shu sababli adabiy tanqidchilikni adabiyot va uning ijodkorlari hamda o'quvchilari o'rtasidagi mexanizmni harakatga keltirib turuvchi kuch deb hisoblagan bo'lardim. Fikrimning isboti sifatida o'z davrining, bugungi kunning buyuk shaxslari sifatida e'tirof etilgan mashhur shaxslarning mavzumiz bo'yicha aytgan, isbot talab qilmas iqtiboslarini keltirib o'taman.

Tanqid qilsang, g'oyani tanqid qil! Muallifini emas (*Leonardo da Vinchi, mashhur italyan rassomi, olim*). O'zing haqingdagi achchiq haqiqatni eshitish, tushunish va yaxshi ko'rishga o'rganing (*Konstantin Sergeevich Stanislavskiy, rus aktyori, pedagog*). Ahmoqlar o'zi haqida maqtov eshitishni, aqllilar esa tanqid qilishlarini yoqtiradi (*Frederik Begbeder, fransuz adabiy tanqidchisi, publitsist*).

Demak, tanqidiy fikrlash, birinchi navbatda, muammolarni hal qilish, hisoblash va ehtimollardan samarali foydalanish kabi o'rganish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi va eng asosiysi, u faqat rivojlanish, taraqqiyot uchun xizmat qiladi.

Asror RO'ZIBOYEV,
"Vatanparvar"

O'quv yig'ini

“FIDOYI YOSHLAR” vatanparvarlarni kashf qildi

Yurtimizda kamol topayotgan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek “O'zbekiston – 2030” strategiyasida mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha belgilab berilgan keng ko'lamlil vazifalarni samarali bajarish maqsadida o'tgan yilning 15-noyabr kuni Prezidentimizning “O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida respublikadagi har bir tuman (*shahar*)da bitta umumta'lim maktabi negizida bolalarni kichik yoshidan Vatanga cheksiz sadoqat ruhida, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan “Jasorat maktabi” faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Mudofaa vazirligi tomonidan

biriktirilgan ta'lim tashkilotida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda, harbiy kasbga yo'naltirish, ular o'rtasida harbiy sport musobaqalari va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchi-yoshlarni harbiy ta'lim muassasalariga saralash ishlarini olib borish, “Vatan tayanchi” otryadi faoliyatini boshqarish hamda harbiy qism va poligonlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish jarayonlari izchillik bilan o'tkazilmoqda.

Jumladan, Surxondaryo viloyatida mazkur qarorga asosan, “Jasorat maktabi” va “Vatan tayanchi” bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari ishtirokida 3 kunlik “Fidoiy yoshlar” o'quv yig'ini tashkil etildi.

Termiz garnizoni harbiy orkestri kuy-sadolari ostida tantanali kutib olingan ishtirokchilar, dastlab Termiz harbiy hospitali mutaxassislar tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi va harbiy libos bilan ta'minlandi.



O'quv yig'inining tantanali ochilish marosimida kuch tuzilmalari vakillari hamda Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, maktabgacha va maktab ta'limi viloyat boshqarmasi mas'ullari ishtirok etdi.

Unda so'z olganlar mazkur yig'inning ahamiyati haqida to'xtalar ekan, ushbu tadbirlar yoshlarda Vatanga muhabbat, sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalash, ularni o'z yurtining haqiqiy himoyachisi sifatida shakllantirishga xizmat qilishini ta'kidlab, barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyatlar tiladi. Shundan so'ng kuch tuzilmalarning zamonaviy qurol-yarog'lari, harbiy texnikalar va O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Surxondaryo viloyati kengashining sport texnikalari ko'rgazmasi hamda harbiy xizmatchilarning chiqishlari namoyish etildi.

Ishtirokchilar harbiy qism hududi bo'ylab tashkil etilgan ekskursiyadan so'ng harbiylar bilan bir dasturxon atrofida tushlik qildi. Tushlikdan keyin esa viloyat musiqali drama teatri tomonidan namoyish etilgan vatanparvarlik ruhida sahna chiqishlarini tomosha qildi. Shu kunning o'zida kun tartibiga ko'ra, sport musobaqalariga start berildi. Yig'in ishtirokchilari harbiy estafeta, shaxmat, shashka, stol tennisi musobaqalarida murosasiz bellashdi.

Ta'kidlash joizki, “Fidoiy yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'ini doirasida o'sib kelayotgan avlodda buyuk tariximiz, azaliy qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo'lish, milliy ruh va

g'ururni yuksaltirish maqsadida, diqqatga sazovor manzillar hamda ziyoratgohlarga uyushtirilgan sayohatlar ham taassurotlarga boy va qiziqarli bo'ldi. Shuningdek, sayohat davomida vohada faoliyat olib borayotgan “Qorabayir otlari mahorat maktabi”ga qilingan tashrif ham yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Yig'inning ikkinchi kuni “Temur tuzuklari” kitobi taqdimoti hamda “Yosh qutqaruvchi” musobaqasi bo'lib o'tdi. Tanlov shartlariga binoan ishtirokchilar berilgan savollarga tezkorlik bilan javob qaytarib, o'z jamoasi g'olibligi uchun murosasiz kurashdilar.

O'quv yig'inining uchinchi kuni harbiy hayotga moslashishga ulgur yoshlar Jarqo'rg'on tumanidagi o'rmon xo'jaligida tashkil etilgan ekstrimal vaziyatlarda to'g'ri va tezkor qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarda ishtirok etdi.

Tadbirlar davomida yoshlarga ona tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash xususida ham atroflicha ma'lumotlar berildi. Shuningdek, Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilari Surxondaryoda uchraydigan noyob daraxt va o'simlik turlari haqida batafsil ma'lumot berdilar. Ha, har qanday ekstrimal holatda insonning jarohat olishi tabiiy. Xo'sh, bunday vaziyatda qanday yo'l tutish lozim? Shu kuni ishtirokchilar bu haqda ham mutaxassislardan tushuncha oldi va o'rganishlarini amaliyotda sinovdan o'tkazdi.

Yoshlarni kutib turgan keyingi vaziyat undan-da qiziqarli va kutilmagan voqealarga boyligi bilan ajralib turdi. Endi ular o'zlari ovlagan parrandalaridan olov yoqib, mazali taom tayyorlashi kerak. Quvonarlisi, yigitlar bu vazifani a'lo darajada uddaladi.

Kun tartibiga asosan, o'quv yig'ini ishtirokchilarga merganlikdan mahorat saboqlari o'tildi va amaliy otish mashg'ulotlarini ham bajardi. Shundan so'ng ularga baliq tutish sirlari o'rgatildi. Ular o'zlari tutgan baliqni tozalab, uni pishirish topshirig'ini ham bekam-ko'st bajardi.

Ushbu kunning eng esda qolarli voqeliklaridan biri 75 nafar ishtirokchi “Ona tabiatga mening hissam” shiori ostida hududga daraxt ko'chatlarini o'tqazdi. Kechga yaqin barcha kuch tuzilmalari rahbarlari va yoshlar ishtirokida “Rahbar va yoshlar” uchrashuvi bo'lib o'tdi.

“Fidoiy yoshlar” harbiy-vatanparvarlik o'quv yig'inining yopilish marosimida yig'in doirasida uyushtirilgan musobaqa va tanlovlarda faol ishtirok etgan yoshlar munosib taqdirlandi. Aytish kerak, bu kabi harbiylashtirilgan o'quv yig'inlari yoshlarning o'zaro hamkorlik qilish, jamoaviy ishlash va bir-biriga yordam berish ko'nikmalarini rivojlantiribgina qolmay, ularni harbiy xizmatga tayyorlash, shaxsiy intizomini oshirib, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mayor Baxtiyor MARDIYEV,
Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari
boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari



Musobaqa

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlaridagi umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbarlari o'rtasida "Eng ilg'or chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchisi" musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.



ENG ILG'OR FAN O'QITUVCHISI ANIQLANDI



Surxondaryo viloyati hokimining tegishli farmoyishiga asosan tashkil etilgan mazkur tadbirda musobaqaning dastlabki bosqichida g'olib bo'lgan 15 nafar ishtirokchi qatnashdi. Ular musobaqada 4 ta shart bo'yicha bellashdi.

Birinchi shartda ishtirokchilarning saf tayyorgarligi bo'yicha bilimlari tekshirildi. Ikkinchi shartda AK-74 qurolini noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish, uchinchi shartda ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash vositalarini belgilangan vaqtda kiyish va yechish hamda to'rtinchi shartda sohaga oid test sinovlari bo'lib o'tdi.

Yakuniy natijaga ko'ra, 1-o'rinni Uzun tumanidagi 10-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari, zaxiradagi mayor Shobek Yusupov qo'lga kiritdi. 2-o'rinni Sariosiyo tumanidagi 21-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari, zaxiradagi serjant Bahrom Ishmatov, 3-o'rinni esa Oltinsoy tumanidagi 36-umumta'lim maktabining chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari, zaxiradagi leytenant Shaxriyor Quدراتov egalladi.

G'oliblar Janubiy operativ qo'mondonlik boshlig'ining kubogi, diplom va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandi.

**III darajali serjant
Akbar AHMEDOV**
Termiz garnizoni

Uch avlod uchrashuvi

BIR NURONIIY O'N NAFAR YOSHGA MAS'UL

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-martdagi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Chirchiq shahri 7-umumta'lim maktabida nuroniylar, o'rta avlod vakillari ishtirokida yoshlarni Vatanga muhabbat, ezgulik, shukronalik, mehnatsevarlik, milliy va umummilliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash maqsadida "Uch avlod uchrashuvi" bo'lib o'tdi.



Uchrashuvda Chirchiq shahri "Nuroniylar" jamoatchilik kengashi raisi O. Yuldashev va kengash a'zolari, O'zbekiston qahramoni T. Ibragimov, Chirchiq shahri kengashi deputati D. Masharipova, "Iftixor", "Lola", "Ma'rifat" mahalla fuqarolar yig'ini "Keksalar maslahati" guruhi raislari hamda a'zolari ishtirok etdi.

Tadbir oldidan mehmonlar 9-10-11-sinflarning tarbiyaviy soatlarida qatnashdilar. "Oila - muqaddas dargoh", "Kitob - ma'rifat chirog'i", "Vaqt qadri" mavzularda o'tkazilgan ochiq sinf soatlari ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Dars yakunida

nuroniylar o'z hayot yo'llari haqida gapirib, tajribalaridan kelib chiqqan holda, yoshlarga pand-nasihatlar berib, bugungi yorug' kunlarga shukronalik keltirib yashash lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan keyin maktabning faollar zalida tadbirning badiiy qismi bo'lib o'tdi. O'quvchilar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar yig'ilganlar olqishiga sazovor bo'ldi.

D. MASHARIPOVA,
Chirchiq shahri
7-umumta'lim maktabi
direktor o'rinbosari

Mening armiyam – mening faxrim!

Qalbidagi VATAN ohangi

Mening hayotim harbiy xizmat bilan chambarchas bog'liq. 2012-yilda muddatli harbiy xizmatga kelganimda, Vatani himoyasi qanday mas'uliyatli va sharafli burch ekanini chuqur anglaganman. Shu kundan boshlab hayotimda yangi sahifa ochildi – armiyada olgan saboqlarim hayot yo'limni belgilab berdi.

Hozirda men Sharqiy harbiy okrug ma'naviyat va ma'rifat markazida musiqachi sifatida xizmat qilmoqdaman. Bu joy nafaqat harbiylarning ma'naviy olamini boyitish, balki yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maskani hamdir. Men kuy-qo'shiqlarim orqali yurtimizning mard va fidoyi farzandlarini ruhlantirishga harakat qilaman.

Bugungi kunda O'zbekiston milliy armiyasi mintaqadagi eng qudratli, zamonaviy va intizomli harbiy tuzilmalardan biriga aylandi. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanib, xalqaro talablarga javob beradigan darajaga yetdi. Harbiy xizmatchilarimizning jangovar tayyorgarligi doimiy ravishda oshirib borilmoqda, ularning harbiy-vatanparvarlik ruhini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu jarayonda biz – san'atkor harbiylar ham o'z hissamizni qo'shmoqdamiz. Har bir tadbirda ijro etilgan vatanparvarlik qo'shiqlari harbiylarning qalbidagi g'urur va sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlaydi. Yosh askarlarning ko'zida har safar ishonch va g'ayratni ko'rganimda o'zimni haqiqiy Vatani xizmatida deb his qilaman.

Harbiy hayotim davomida men kitobning inson tafakkurini o'stirishdagi o'rni beqiyos ekanini chuqur angladim. Kitob – bilim va ma'naviyat manbai, u insonni kuchli va mustahkam irodali qiladi. Ayniqsa, harbiy xizmatchilar uchun mutolaa – Vatani oldidagi burchini anglash, o'z ustida ishlash va fidokorlik ruhini yanada mustahkamlashning muhim vositasidir. Armiyamizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish maqsadida turli tadbirlar, badiiy kechalar va ma'naviy mashg'ulotlar o'tkazilmoqda.

Bugun ikki farzandning otasiman. Ularni ham Vatanga, millatga sadoqat ruhida tarbiyalashga intilaman. Kitob bu yo'lida eng yaxshi vositadir.

Men o'z kasbimdan faxrlanaman! Vatani ravnaqi yo'lida xizmat qilish – bu eng oliy saodat!

**Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar
Doston ABDULLAYEV**
Sharqiy harbiy okrug

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida Sirdaryo tumanida ham muayyan natijalarga erishilmoqda. Jumladan, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarini targ'ib etish, ommaviy kasb mutaxassislarini tayyorlash hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Sirdaryo viloyati kengashi tasarrufidagi tuman o'quv sport-texnika klubida olib borilayotgan ishlar shular sirasidan.

HAMKORLIKDAGI TARG'IBOT TADBIRLARI

Shu kunlarda tuman o'quv sport-texnika klubi xodimlari tomonidan yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti faol tarzda olib borilmoqda. Xususan, tuman mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi bo'limlari, harbiy qismlar, Paxtakor, Furqat mahallalari hamda 1-, 4-, 27-, 42-umumta'lim maktablari hamda ichki ishlar vazirligi akademik litseyi bilan hamkorlikda o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlari shular jumlasidan.

– Albatta, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan o'tkazilgan "Vatanparvarlik oyligi" doirasida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida o'tkazilgan bunday tadbirlar yoshlarning qalbida ona Vatanga sadoqat hissini, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda muhim o'rin tutadi, – deydi klub boshlig'i Galib Amzayev. – Shu bois ham O'STK jamoasi tomonidan tuman yoshlarining jismoniy, ma'naviy-ruhiy jihatdan yetuk bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.



Bundan tashqari, yoshlarning jismoniy faolligini oshirishga ko'maklashish maqsadida ularga sportning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanishlari uchun qulay sharoitlar yaratilgan. Shu kunlarda klubda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiya va to'garaklarga 30 nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb etilgan. Sportchi yoshlar o'z navbatida nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishmoqda. Masalan, o'q otish sporti bo'yicha merganimiz, respublika terma jamoasi a'zosi Muhammadyusuf Haydarov bir necha bor Osiyo chempionati musobaqalarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Shuningdek, viloyat miqyosidagi o'q otish musobaqasida ishtirok etgan klub a'zolari – Dilshod Muxtorov, Muqaddas Abduqahhorova, Hojiakbar Haydarov, Nozima Abduxalimova kabi sportchilar faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, mazkur o'quv sport-texnika klubida ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash borasida ham salmoqli natijalarga erishmoqda. Chunonchi, o'quv-mashg'ulot xonalari yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida kerakli va zarur jihozlar bilan ta'minlanib, "B", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari faoliyat ko'rsatmoqda. O'tgan yili hududdagi harbiy qismlarning biri bilan imzolangan memorandumga asosan 50 nafar harbiy xizmatchi ham haydovchilik kurslarida tahsil oldi.

Ayni paytda klub jamoasi tarkibida katta mehnat tajribasiga ega mohir o'qituvchilar hamda amaliy boshqarishni o'rgatuvchi-

ustalar talaygina. Shahboz Nazarov, Inomiddinjon Husainov, Orif Satkinov, Rustam Atabayev, Alisher Beknazov, Feruza Aliyeva singari o'qituvchi va murabbiylar shular jumlasidan. Haydovchilikka nomzodlarning imtihon hay'ati qabul qilgan sinovlardan muvaffaqiyatli o'tayotganliklari ham ana shunday ustozlar faoliyati ijobiy natija berayotganligining isbotidir.

Akbar ALLAMURODOV



VATANPARVAR TASHKILOTI
SIRDARYO TUMANI
O'QUV SPORT TEXNIKA KLUBI

B – TOIFA

BC – TOIFA

C – TOIFA

O'Q OTISH
TO'GARAGI

+99867 337-34-99



Islohot

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tasarrufidagi Pop tumani o'quv sport-texnika klubining zamonaviy talablarga mos ravishda bunyod etilgan avtodromi foydalanishga topshirildi.



YANA BIR AVTODROM QURIB BITKAZILDI



Tantanal marosimda "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi va viloyat kengashi mas'ul xodimlari, tuman mutasaddilari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqanlar o'rnatilgan talablarga binoan, qurib bitkazilgan mazkur o'quv avtodromida haydovchilik kasbini o'rganayotgan fuqarolar doimiy ravishda barcha toifalar bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni sifatli o'tashlari va malakali mutaxassislar tomonidan saboq olishlari mumkinligini bildirdi.

"Vatanparvar" tashkiloti tizimida "Motokross", "Karting", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Aviamodel", "Raketamodel", "Kemamodel" bo'yicha tashkil etilgan sport seksiyalarining ko'rgazmalari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Ayniqsa, tashkilotning yosh sportchilari tomonidan yasalgan raketa modellarining ochiq osmonga uchirilishi barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati

So'ragan edingiz

Huquqiy maslahat



Savol: Muddatli harbiy xizmatga borganlarga ishga va o'qishga kirish uchun qanday imtiyozlar bor?

Javob: Davlat muddatli harbiy xizmatni o'tagan fuqarolarni ishga joylashtirish bo'yicha qo'shimcha kafolatlarni ta'minlaydi.

Ish beruvchi mehnat organlari va boshqa organlar tomonidan yuborilgan bunday toifadagi shaxslarni qonunchilikda belgilangan tartibda ishga qabul qiladi.

Shuningdek, muddatli harbiy xizmatga borib, yuqori natijalarga erishganlarga belgilangan tartibda tavsianoma beriladi.

Bunday tavsianomaga ega bo'lgan fuqarolar:

- respublikaning oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi tegishli ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirishda test sinovlari natijalariga ko'ra, o'zlari to'plagan ballarining 50 foizi miqdorida qo'shimcha ball shaklidagi imtiyozga;

- respublikaning oliy ta'lim muassasalari (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) bakalavriatiga o'qishga kirish uchun oliy ta'lim muassasalariga qabul parametrlaridan tashqari ajratiladigan alohida qabul ko'rsatkichlari doirasida tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.

Tavsianoma u berilgan sanadan boshlab uch yil mobaynida amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi axborot xizmati

Yong'in xavfsizligi

Bilim va ko'nikmalar oshirildi

Sharqiy harbiy okrug qo'shinlar qo'mondonligi harbiy qism va muassasalarida qishki mavsumda yong'in xavfsizligini yanada kuchaytirish hamda shaxsiy tarkibning bu borada bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida Farg'ona viloyati favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mutaxassislari bilan garnizon hududidagi harbiy qismda ko'rgazmali o'quv mashg'uloti o'tkazildi.



Mashg'ulot davomida harbiy xizmatchilarga yong'inning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar, yong'in sodir bo'lganida uni tezkorlik bilan o'chirish uchun bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar to'g'risida, shuningdek birlamchi yong'in o'chirish vositalarining vazifasi, aholi yashash xonadonlarida sodir bo'layotgan is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq mudhish hodisalarning oldini olishga qaratilgan kechiktirib bo'lmas choralarini ko'rish bo'yicha tushunchalar berildi.

Mashg'ulot harbiy xizmatchilar bilan erkin muloqot tarzida o'tkazilib, ular o'zlarini qiziqtirgan savollariga mutaxassislar tomonidan javob oldi.

Podpolkovnik Baxtiyor ERGASHEV, Farg'ona garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi boshlig'i

Ochiq eshiklar kuni

Harbiy qismda bir kun

Guliston harbiy prokuraturasi va kuch tuzilmalari hamkorligida harbiy qismlarning birida ochiq eshiklar kuni o'tkazildi.

Unda Toshkent viloyati Bekobod va Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanlarining olis hududlarida joylashgan umumta'lim maktablaridan 100 nafarga yaqin o'quvchi hamda mahalla yoshlari ishtirok etdi.

Tadbirda harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar va Qurolli Kuchlarda mavjud zamonaviy aslahalar, o'quv xonalari, texnika va uskunalar namoyishi tashkil etildi.

Ertamiz egalarining o'zlari bu kabi vositalardan foydalanib ko'rgan tadbirning unutilmas onlarga boy bo'lishiga zamin yaratdi.

Kunning ikkinchi yarmida Sirdaryo viloyati musiqali drama teatrida "Ko'cha bolasi" spektakli namoyish etildi.

Adliya podpolkovnigi Farrux DJUMAYEV, Guliston harbiy prokuratori

Ma'naviyat

MUZEYLAR

bag'ridagi milliy ruh

haqida so'zlovchi muzey ana shunday ma'naviyat maskanlaridan biri.

2021-yili Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni arafasida mazkur muzeyning ochilish marosimi bo'lib o'tgan edi. Uning tashkil etilishida harbiylar, faxriylar, davlat va jamoatchilik kengashi vakillari jonbozlik ko'rsatdi. Ularning yordami bilan **1 500 ga yaqin eksponat** to'plandi. Buyumlar saralandi, mavzulashtirildi, shu tariqa harbiy-vatanparvarlikni targ'ib etishdek buyuk g'oyani o'ziga jo etgan yana bir tarixiy maskan faoliyatini boshladi. Qisqa vaqt ichida muzey qoraqalpog'istonlik yoshlarning sevimli maskaniga aylandi.

Muzeyga kiraverishda dastlab Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati tarixiga doir ma'lumotlar o'rin olgan.

Ma'lumki, qadim tarix bilan yuzlashgan Qoraqalpog'istonda bugun 245 ga yaqin ziyoratgoh ro'yxatga olingan, shulardan 46 tasi tarixiy arxeologik, 81 tasi madaniy monumet esdalikdan iborat. Chilpiqqal'a, Ayozqal'a, Tuproqqal'a, Guldursunqal'a va shu kabi qadim qal'alar hali-hanuz o'z savlatini yo'qotmay, o'zbek va qoraqalpog' xalqlarining uzoq o'tmishidan so'zlab kelmoqda. Tarixga nazar bo'limi ekspozitsiyasi ikki hududning tarixi haqidagi ma'lumotlarni goh so'zlarda, goh fototasvirlarda ifoda etadi. Amaliy san'at va hunarmandchilik buyumlaridan namunalar esa qoraqalpog' va Xorazm xalqining boy madaniy merosidan so'zlaydi. Shu o'rinda yana bir qiziqarli ma'lumotni yetkazsak, okrug muzeyida qoraqalpog'istonlik ikki ijodkor Amet va Ayimxan Shamuratovlarning uy muzeyi fondidan samarali foydalanilgan.

Bo'limning **"Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek va qoraqalpog' xalqining g'alabaga qo'shgan hissasi"** blogi O'zbekiston hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidan frontda qatnashgan va front ortida mehnat qilgan qahramonlar, ularning shaxsiy buyumlari, urush yillarida ishlatilgan qurol-aslah va harbiy anjomlari, Qoraqalpog'iston aholisi tomonidan urush yillarida ko'rsatilgan amaliy yordam haqidagi ma'lumotlarni tomoshabinlarga yetkazadi.

Raqamlar ko'rsatkichi bilan tarixni varaqlasak, 1941-yilning 1-noyabriga qadar Qoraqalpog'istonda **20 ta batalyon, 114 ta rota, 955 ta bo'linma** tashkil etilgan. 1941-yil 3-dekabrda 97-Qoraqalpog' alohida milliy brigadasi tuzilib, uning saflariga ko'ngilli ravishda **5 ming**

500 nafar xizmatchi va yoshlar kirganiga guvoh bo'lamiz.

Ushbu bo'limning yana bir muhim eksponatlaridan biri Mo'ynoq tumanining baliq konserva kombinatida ishlab chiqarilgan konserva qutisidir. Ha, Ikkinchi jahon urushi paytida Mo'ynoqdagi baliq konserva zavodining dong'i dunyoga tarqalgan edi. Frontga Mo'ynoqdan **10 million donadan ortiq** konserva jo'natilib turilgan. Mo'ynoq esa Orol dengizining qirg'og'idagi port shaharlardan edi. Orolning fojiaiy qismati sabab konserva kombinati 1990-yilga kelib yopiladi. Hozir esa afsuslar bo'lsinki, tabiat katta yo'qotishga yuz tutdi: Orol dengizi Mo'ynoqni tark etdi. Yillar, balki asrlar o'tib, Orol dengizi yana to'lib-toshishi mumkin, lekin bugun undan faqat xotiralargina qoldi, xolos.

Mustaqillik yillaridan keyingi davrni o'z ichiga qamrab olgan **Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tashkil etilishi** bo'limi ham bir necha bloklardan iborat bo'lib, u 1991-yildan 1998-yilgacha bo'lgan davr va undan keyingi to hozirgacha bo'lgan okrug hayoti va faoliyati haqidagi qiziqarli mavzularni qamrab olgan.

So'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar jarayonida Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda ham qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan okrugda harbiylar va ularning oilalari uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Natijada harbiy xizmatchilarning malaka va tajribasi oshdi. Qo'shinlarning jangovar shayligi va tayyorgarligi yanada yaxshilandi. Muzey ekspozitsiya zallaridan o'rin olgan **"Xalqaro hamkorlik", "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch", "Vatan ulug' - burch muqaddas", "Harbiy okrugimiz iftixorlari"** kabi bloklarda aynan keyingi yillarda Qurolli Kuchlarimizda amalga oshirilgan tizimli islohotlarning samarasi yorqin lavhalarda namoyishga qo'yilgan. Harbiylarning respublika va xalqaro tanlovlarda ishtirok etib erishgan yutuqlari, medal va diplomlari, fotosuratlar, esdalik sovg'alari vitrina va stendlarda havola etilgan.

Muzey tomoshabinlarga shunchaki xizmat qilmaydi, balki jonli tarix vazifasini o'tab, insonni tarbiyalaydi. Harbiy okrug tarixi muzeyi ham yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgani bilan ahamiyatli. Har kuni o'quvchi-

yoshlar bilan gavjum maskanda ular ishtirokida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtiriladi. Murg'ak qalblar ushbu tadbirlar orqali Vatanni taniydi, yurtini sevish va unga sadoqatli farzand bo'lishni o'rganadi, harbiy kasbga havas bilan ulg'ayadi. Bir so'z bilan aytganda, harbiy-vatanparvarlik yo'nalishidagi mazkur muzey yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo'shayotgan ma'naviyat maskani ekani bilan qimmatlidir.

Shohista ABDURAHIMOVA

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Inson o'zligini, tarixini anglar ekan, unda milliy ruh ham mustahkam bo'ladi. Yoshlar qalbiga milliy ruhni singdirish, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida muzeylarning ham muhim o'rni borligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Bugun yurtimizda turli sohalarga yo'naltirilgan ko'plab muzeylar faoliyat olib boradi. Ular orasida aynan harbiy-vatanparvarlikni targ'ib qiluvchi, Qurolli Kuchlar tarixidan so'zlovchi muzeylar alohida o'rin tutadi. Shulardan biri O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi poytaxtimiz Toshkent shahrida tomoshabinlar uchun o'z eshigini ochgan bo'lsa, harbiy okruglarda ham xuddi shu kabi muzeylar tashkil etilgan. Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tarixi va buguni

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
polkovnik Alisher Boboxonov
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti - "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-91
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-90

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5898
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 073 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag'bon ko'chasi, 382-uy.

t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz

mudofaavazirligi

mudofaavazirligi

www.youtube.com/c/UzArmiya